yo'lboshchimiz asarlarida ilgari surilayotgan nazariy-metodologik va amaliy masalalarni, Oliy Majlisda qabul qilinayotgan Qonunlar va hukumatning qarorlarini yoritib boradilar.

Beshinchidan, ma'ruza talaba mustaqil ishining asosiy yo'nalishlarini, mazmunini belgilab beradi. Talaba maruzaning ana shu jihatini yaxshi anglab olgandagina hech kimning aralashuvisiz o'z ustida mustaqil ishlaydi, turli fanlarni o'rganadi. Birinchi kurs talabasi o'qituvchining yordamisiz o'z mustaqil ishini to'g'ri tashkil yetolmaydi.

Har bir ma'ruza talabaga nimalarni bilib olishni, qanday adabiyotlar va birinchi manba'larni o'qish va konspekt olishni belgilab beradi. Bu talabaning muvaffaqiyatli o'qishining garovidir.

Oltinchidan, ma'ruzalarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Talaba ma'ruza jarayonida ustozning mehnatiga hamnafas va bahramand bo'ladi. Ma'ruza o'qish oson yemas, u juda katta mehnatni, tinimsiz tayyorgarlikni talab qiladi, talaba buni sezadi, ta'sirlanadi, o'zida ham shunday ijodiy mehnat qilishga intilish hissi shakllanadi.

Ma'ruza jarayonida domla bilan talaba o'rtasida ijodiy bog'lanish, o'qituvchining materialni jonli, yoqimli ovoz va bilimdonlik bilan bayon qilishi, o'z mantiqi, pedagogik mahorati, harakatlari talabaning ma'naviy o'sishiga ijobiy ta'sir yetadi.

Tajriba ko'rsatadiki, hech qanday darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-texnik vositalar va boshqalar ijodiy, pedagogik mahorat bilan o'qiladigan jonli ma'ruzalar o'rnini bosaolmaydi.

Biroq, yaxshi ma'ruza ishning yarmi xolos, uning ikkinchi yarmi talabaga bog'liq. Talaba ma'ruza tinglashga va uni yozib olishga tayyormi? Ma'ruzadan oldin, ma'ruza jarayonida, ma'ruzadan keyin nima qilish kerakligini biladimi?

Yendi ana shu masalalar to'g'risida fikr mulohazalarimizni bayon yetaylik. Avvalo shuni ta'kidlamoqchimizki, talaba barcha ma'ruzalarga qatnashishga majbur, bu uning talabalik burchi.

Ma'ruzalarni yo'nalish va maqsadiga ko'ra o'quv dasturi asosida o'qiladigan tizimli kurs ma'ruzalari, muammoli ma'ruzalar, maxsus kurs ma'ruzalari va Davlat attestatsiyalari oldidan o'tiladigan umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi ma'ruzalarga ajratish mumkin. Talaba barcha turdagi ma'ruzalarga qatnashishi shart.

Talaba ma'ruza materiallarini o'zlashtirib olishi uchun oldindan unga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish deganda qanday ishlarni tushunamiz? O'rganilayotgan fan bo'yicha o'quv dasturi, darslik va o'quv qo'llanmalariga yega bo'lishi shart. Ular orqali navbatdagi ma'ruza qaysi mavzuda bo'lishini aniqlash lozim. Mavzu aniqlangach, darslik yoki o'quv qo'llanmadan mazkur mavzuga doir materiallarni o'rganishi, qanday masalalar yoritilgani to'g'risida tushunchaga yega bo'lishi zarur. Ana shunday tayyorgarlik ma'ruza materiallarini to'laroq o'zlashtirib olish imkoniyatini beradi.

Ko'pgina talabalar avval ma'ruzani tinglab, keyin o'qiydilar, bu holat o'zlashtirish samaradorligi darajasini pasaytiradi.

Masalan, "Xorijiy investitsiyalarning mohiyati" mavzusidagi ma'ruzadan oldin talaba unga tayyorgarlik ko'rsa, o'quv dasturidan ushbu mavzuni topib nimalarni bilish zarurligini aniqlab olib, "Xorijiy investitsiyalar" o'quv qo'llanmaning ushbu mavzusi bilan tanishgan bo'lsa o'quvchi ma'ruzasini ijodiy ravishda tinglaydi.

Tajribadan ma'lumki, tinglovchi ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lum darajada bilimga, tasavvurga yega bo'lsa, o'sha mavzuda o'qiladigan ma'ruza materiallarini tez, yengil va chuqur o'zlashtiraoladi.

Ma'ruzaga oldindan tayyorgarlik ko'rishiing ahamiyati yana shundaki, talaba ma'ruza jarayonida o'qituvchi nimalar xaqida gapirishi mumkinligi xaqida oldindan fikrlay oladi, ma'ruzachi bilan ichki aloqada bo'lib turadi, uning ma'ruzaga qiziqishi ortadi, diqqati va aqliy faoliyati kuchayadi.

Ma'ruzaga oldindan tayyorgarlik ko'rish yehtimol 1-1,5 soat vaqtni talab qilar, lekin puxta bilim olish, o'zlashtirgan bilimni xotirada mustahkam saqlashda uning ahamiyati katta. Yana shuni yodda tutish lozimki, darslikni bir-ikki, lozim bo'lsa yana bir marta o'qish mumkin, ammo ma'ruza bir marta bo'ladi, unda tushuntirilgan ilmiy, nazariy, amaliy masalalar

yana qaytadan tushuntirilmaydi.

Yana bir muhim masala ma'ruzani tinglash, o'qib olish, idrok yeta olish, masalasidir. Bu ham jiddiy jarayon. Ayrim talabalar tinglab o'tirganday holatda turadiyu, hech narsani yeshitmaydi. "O'zim har joydaman, ko'nglim sendadur", degan ibora bekorga aytilmagan. Insonning o'yi, fikrlashi nutq orqali ifoda yetiladigan tushunchadan bir necha baravar oldinga chopib ketadi. Shunaqasi ham bo'ladiki, nutqning so'zlari orasida o'tgan qisqa bir vaqtda tinglovchining fikri beixtiyor qochishi, mutlaqo boshqa masalalarda fikrlab qolishi mumkin, fikr yana ma'ruzaga qaytib o'qituvchining so'zlarini yeshita boshlaydi. Natijada tinglovchi xotirasida bir necha so'zlarga qoladi, ammo aytilgan fikrning mazmunini idrok qilolmay qoladi. Bu yerda gap ixtiyoriy, ongli idrok yetish ustida bormoqda. Ixtiyoriy, ongli idrok yetish oldindan belgilab olingan bir maqsad bo'yicha va butun kuch hamda irodani sarflagan holda ro'yobga chiqadi.

Talaba shuni yaxshi yesda saqlashi lozimki, oliy maktab bilishning uyushgan, idrok yetishning ongli, ixtiyoriy jarayonlarini amalga oshirishni talab qiladi. Ongli idrok yetish talabaning mehnati, irodasi, g'ayrat-shijoati yevaziga hosil bo'ladi. Xo'sh buning uchun nimalar qilish kerak?

Avvalo talaba o'zini ma'ruza tinglashga tayyorlashi, ya'ni o'z imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan holda (yeshitish qobiliyati, ko'rishi va hokazolarga qarab) o'quv xonasidan o'rin olishi, ma'ruza tinglashga o'zini safarbar yetishi, ish kayfiyatini vujudga keltirishi lozim.

Idrok yetishning asosiy sharti ma'ruzaga qaratilgan diqqat -ye'tibordir. Talaba ma'ruza materiallarini yeshitish va o'zlashtirib olish uchun o'zini ma'ruzani tinglashga batamom safarbar yeta olishi kerak. Ma'ruzaga aloqasi bo'lmagan biron narsa domlaning gaplari, tushuntirishlari, mulohazalarini yeshitishga xalaqit bermayotganini, biron fikr uni chalg'itmayotganini his qilib o'tirish katta ahamiyatga yega. Diqqat - ye'tibor insonning irodasiga bog'liq. Talaba o'z irodasini ishga solib, diqqat - ye'tibori bilan ma'ruzani tinglab o'tiradigan bo'lsa, faqat ma'ruzada aytilayotgan tushunchalar, bilimlar xaqida o'ylab, ularga quloq solib o'tirsa ma'ruza materiallari uning ongiga to'la-to'kis singib boradi.

Ma'ruza tinglayotgan talabaning diqqat-ye'tibori tor, bir nuqtaga qadalgan yoki yoyiq tarqoq bo'lishi ham mumkin. Masalan, maruzaga quloq solib, yozmay o'tirgan talabaning ye'tibori tor, bir nuqtaga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruzani yozib bormaslik talaba imkoniyatini cheklab qo'yadi, bir muncha vaqt o'tgach, yeshitganlarini xotirlay olmaydi, pirovirdida talabaning bilimi sayoz bo'lib qoladi. Psixologlarning tadqiqotlari ko'rsatadiki, 3-4 soat o'tgach xotirada ma'ruza asosiy mazmunining 45 foizi, bir xaftadan keyin 30 foizi qolarkan va hokazo pasayib borishi kuzatilgan.

Talaba ma'ruzani tinglash bilan birga yozib borishni ham bilishi lozim. Ma'ruzani to'laroq yozib olish, konspektlashtirish puxta, mukammal bilim olishda talabaga katta ko'makchidir. Ma'ruzani yozib borish talabaning ko'rish va yeshitish sezgilaridan tashqari xotirlab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Ma'ruzani to'g'ri konspektlashtirish katta san'atdir, u katta aqliy mehnatni talab qiladi. Domla nima desa hech ye'tibor bermay hammasini birma-bir yozib borish ham unacha yaxshi natija bermaydi. Aslida ma'ruzani so'zma-so'z yozib borishning iloji ham bo'lmaydi orada ko'p so'zlar qolib ketaveradi va pirovardida konspekt tushunarli bo'lmay qoladi.

Ma'ruzachi tomonidan aytilayotganlarning mag'zini chaqib, tushunib olib, undan keyin keraklisini qisqaroq qilib yozib olish zarur. Yeshitish, tushunish va yozma detal tartibga rioya yetish lozim. Yozish paytida ye'tiborni faqat yozishgagina yemas, ayni paytda quloq solish, yeshitishni, aytilayotgai tushuncha, fikr mulohazalarni ham o'zlashtirib borishga harakat qilish lozim. Demak, talabaning diqqat-ye'tibori yoyiq, keng doirali bo'lishi zarur. Bu birdaniga bo'lmaydi, albatta. Ma'ruza paytida talabaning yoyiq, keng doiradi ye'tibori mashq natijasida shakllanadi. Talaba o'zida bunday ye'tiborni tarbiyalashi kerak. Ham tinglab, ham yozib borish jarayonida ye'tibor kuchayadi, uyushqoqlik oshadi. Talaba asta-sekin o'zida ham butun kuch-g'ayratini bir paytning o'zida ham yeshitishga, ham yozishga sarflashga o'rganadi.

Bugina yemas talaba nimalarni yozib borayotganligini biladi va xotirasida qola boradi. Talaba materialni qanchalik tushunayotgani va yesda saqlab qolayotganini nazorat qilib turish ko'nikmalariga ham yega bo'lib boradi.

Ma'ruzani shu tariqa tinglash va yozish jarayonida talaba intellektual faol holatda bo'ladi, bu o'z navbatida talaba ish qobiliyatini kuchaytiradi va kun davomida saqlaydi. Talaba ma'ruzada hamisha diqqat bilan o'tirishga o'rganadi, o'ylaydigan, intellektual faol bo'ladi.

Har bir fan bo'yicha ma'ruzani alohida umumiy daftarga siyohli yoki sharikli ruchkada, chiroyli va tushunarli qilib yozish lozim. Yozish paytida ma'ruzada aytilayotgan muhim tushunchalar, qoidalar, dalillar, metodologik xarakterdagi fikrlarni yozishga ulgurish lozim. So'zlarni qisqartib yozishga o'rganing. Masalan, O'zbekiston Respublika degan so'zlarni- O'zR, bozor munosabatlarini - boz.mun-ri va hokazo.

Ma'ruza mavzusi va rejasini, mavzu bo'yicha tavsiya etilgan ada-biyotlarni to'la yozib olish muhim ahamiyatga yega. Ma'ruza jarayonida bir masaladan ikkinchi masalaga o'tish paytini anglash lozim.

Ma'ruzachi biron bir asardan, birinchi manbadan sitata o'qib bersa, uni to'la yozishga ulgurib bo'lmaydi. Shuning uchun sitatani qisqacha mazmunini yozib, kitobning yoki manbaning nomini va betini yozib olish kerak. Keyinchalik uni topib sitatani to'la yozib olish mumkin bo'ladi.

Tez yozish malakasini ham o'rganish zarur. Talaba minutiga 15-20 so'z yoza olsa yaxshi natijaga yerishadi.

Har bir mavzuni yangi betdan boshlash lozim. Yozish paytida daftar saxifasidan kattaroq ochiq joy qoldirish zarur.

Boshqa bir talabaning konspektidan foydalanishga urinish foyda bermaydi. Tajriba birovning konspektidan o'qib bilish uchun sarflanadigan vaqt samarasiz yekanligini, ijobiy natija bermasligini ko'rsatadi.

Talaba ma'ruzani yeshitdi va konspektlashtirdi. Bu bilan ish xali tomom bo'lmaydi. Shu kuni uyga, talabalar turar joyiga kelgandan keyin ma'ruzada yozib olgan konspektni o'qib chiqish, qayta ishlashi va to'ldirishi lozim. O'qiyotganda muhim so'zlarning tagiga chizib qo'yish, so'zlar tushib qolgan bo'lsa qo'shimcha qilib yozib qo'yish, ortiqcha yoki takror yozilgan so'zlar yoki jumlar bo'lsa o'chirib tashlash kerak. Shu tariqa konspekt tartibga solinadi.

Shundan keyin darslik yoki o'quv qo'llanmasidan ma'ruza mavzusini topib o'qish va konspekt bilan solishtirish lozim. Bu jarayonda talaba kitobdan konspektida yozilgan qoidalar, tushunchalar, statistik ma'lumotlarga duch keladi. Ularni o'qib mohiyatiga tushungach, ularni daftarning tegishli ochiq joylariga qisqa qilib o'z so'zlari bilan yozib qo'yish zarur. Ilg'or talabalar gazetalar, konsultasiyalar va muloqat darslarida mazkur mavzu bo'yicha olgan bilimlarini ham konspektlarining tegishli joylariga yozib boradilar.

Shunday tarzda yozilgan konspekt muvoffaqiyatli o'qishning garovidir. U nafaqat talabalik yillarida, shuningdek keyinchalik mehnat qilish paytida ham asqotadi. Bu talabaning o'zi yaratgan muhim va zarur bilimlar jamlangan qo'llanmadir.

Seminar" so'zi lotincha so'z bo'lib "bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Oliy o'quv yurtida seminar o'quv-nazariy mashg'ulotlarning muhim shakli bo'lib, talabalarga o'quv rejasida nazarda tutilgan predmetlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Seminar mashg'ulotining ahamiyati shundaki, u talabalarda kitob ustida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: "demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson yerkin fikrlaydigan yetib tarbiyalanadi. Agar bolalar yerkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir".¹ Yaxshi uyushtirilgai seminar - talabalar uchun mustaqil fikrlashni o'rgatadigan maktabdir.

Seminar mavzusi, uning rejasi va o'rganish zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati kafedralar tomonidan o'quv yili boshlanmasdanoq tuzilgan bo'ladi va bu ma'lumotlar seminar o'tkazuvchi o'qituvchi tomonidan talabalarga o'z vaqtida yetkaziladi. Seminar o'tiladigan kuni, vaqti va joyi dars jadvalida ko'rsatilgan bo'ladi.

Institutimizning birinchi kursida O'zbekiston tarixi, Iqtisodiy nazariya, Siyosashunoslik va h.k. fanlar yuzasidan seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Seminar mashg'uloti ikki xil usulda tashkil yetilishi mumkin. Birinchisi, seminar mavzusida belgilangan muhim masalalar bo'yicha qizg'in ijodiy baxslashuvlar bo'ladi. Ikkinchisi, talabalar tomonidan tayyorlangan mavzuga doir o'quv-ilmiy yoki ilmiy ma'ruzalar tinglanadi va uni talabalar bilan muhokama qilinadi. Har ikkala holda ham seminar talabalar o'rtasida fikr almashuv, muhokama va bahslashuv shaklida o'tadi.

Seminar mashg'ulotlariga qanday tayyorlanish kerak?

Seminarga tayyorlanish talabaning mustaqil ishiga asoslanadi. Mustaqil individual aqliy mehnat o'qishning yeng samarali shaklidir. Seminar mavzusi bo'yicha, odatda, oldin ma'ruza o'qiladi. Demak, seminarga tayyorgarlik ko'rish ma'ruzani yeshitish va yozib olishdan boshlanadi. Ma'ruzada berilayotgan materialni yaxshi o'zlashtirish, ijodiy idrok yetish, konspektlashtirish va uni qayta ishlash, to'ldirish seminar mashg'ulotlariga puxta tayyorgarlik ko'rishning zarur shartidir.

Seminarga tayyorlanishning yana bir sharti shuki, kafedralarda ishlab chiqilgan. Masalan, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasidan tayyorlangan "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fan o'quv dasturi, Buxgalteriya hisobi nazariyasi seminar mashg'ulotlari rejasi, hamda Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha metodik maslahatlar kabi o'quv qo'llanmalarini institut axborot resurs markazidan olish va ularga amal qilish lozim.

Seminarga tayyorlanishning asosiy sharti tavsiya etilgan manbalar va kitoblarni o'qib o'rganish va konspektlashtirishdir. Bu yesa ma'lum vaqt va qunt talab qiladigan juda murakkab faoliyatdir. Bu ishni bir o'tirishda yoki seminar mashg'ulotidan bir kun oldin bajarib bo'lmaydi.

Bundan shunday xulosaga qilish mumkinki talaba hafta davomida ma'lum reja asosida muntazam sur'atda shug'ullanib borgan taqdirdagina seminar mashg'ulotlariga puxta va o'z vaqtida tayyor bo'lishi mumkin.

Seminarga tayyorlanish birinchi manbalar, kitob ustida ishlash jarayonidir. Avvalo, kitob bilan umumiy tarzda tanishib chiqib, uning muallifi, nomi, hajmi, qachon va qaerda nashr etilganiga ye'tibor berish lozim. Kitobning ilmiy apparati, ya'ni manbalarga qilingan iloalar, yeslatmalar va boshqalari bilan ham tanishib chiqish zarur.

Tavsiya ztilgan har bir manba va kitobni boshidai oxirigacha birma-bir qunt bilan o'qib o'rganish lozim. Agar kitob katta, bir necha qism va boblardan iborat bo'lsa, uni ayrim-ayrim qism va boblar bo'yicha navbatma-navbat yoki seminar rejasida ko'rsatilgan betlarini ko'rish lozim bo'ladi. Shoshilmasdan, butun hayolni jamlab, qo'lga qalam olgan xolda, o'qilganini tahlil qilib, yangi fikr-mulohazalarni oldingilari bilan o'zaro bog'lagan, ilgari surilayotgai asosiy g'oyalar va tushunchalarni ajrata biladigan tarzda o'qish lozim. Agar kitob shaxsan o'zingizniki bo'lsa, o'qilayotganda muhim joylarini tagiga chizib, chetiga o'z fikr mulohazalaringizni yoki o'qilganda mustaqil bayon yetib berish uchun so'zlash rejangizni yozib qo'yishingiz mumkin.

Manba yoki kitobni o'qib chiqqach, uning ustida puxta o'ylab ko'rish lozim, bu materialni yana to'laroq tushunish va o'zlashtirib olishga yordam beradi. O'ylash davomida

¹ Karimov I. Barkamol avlod - O'zbekistop taraqqiyotining poydevori. Xalq so'zi, 1997 yil 30 avgust soni.

talabada bir qancha savollar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, o'qilgan kitobda qanday asosiy g'oya va muhim tushunchalar ilgari surilayapti, ular seminar mavzusiga qanchalik aloqador, ilgari o'rganilganlarga nechog'lik bog'liq, seminarning qaysi savoli haqida gap borayapti? Ana shunday savollarga javob toparkan talabada shaxsiy fikr-mulohazadar tug'iladi. Kitob ustida ishlash mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, degan iboraniig ma'nosi shundadir.

Birinchi manba, tavsiya etilgan kitoblarni yuqorida aytilgan tarzda o'qib chiqqandan keyin kitob ustida ishlashning so'nggi bosqichiga - o'qilganni daftarga yozib olishga o'tiladi.

Seminar mashg'ulotlari uchun alohida umumiy daftar tutiladi. Bu daftarga yozishniig asosiy shakli konspekt olish bo'lib, o'rganilayotgan materialning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinadi.

Birinchi manba va kitobdan kopspekt yozish ko'p vaqt va aqliy kuch talab qiladigan ish, ammo bilim asoslarini o'rganishda juda samarali, juda yaxshi sinalgai usuldir. Og'zaki nutqdan ko'ra qog'ozga yozilgan xolda bayon qilingan fikr ravon va puxta bo'ladi.

Konspekt yozishning yana bir afzalligi shundaki, o'rganilgan, yozib olingan material xotirada yaxshi saqlanib qoladi, uni darrov yesga olish mumkin bo'ladi. Konspekt ancha vaqt o'tib ketganidan keyin ham, qimmatli material sifatida xizmat qiladi, sinov va imtihonlarga tayyorlanishni osonlashtiradi. Konspekt olish jarayonida talaba reja tuzish, tezis. yozish, sitatalar olish kabi turli xil yozuv shakllarini ham o'zlashtirib boradi.

Konspektni to'g'ri va ma'lum tartibda yozishga alohida ye'tibor berish lozim. Konspektni daftar saxifasiga bir xil, bir sidra yozib ketavermasdan, ba'zi xollarda ayrim so'zlarni, qisqa tushunchalarni yaqqol ko'rinib turadigan shaklda alohida bo'rttirib yoki bosma shriftlarda yozish ma'qul. Sarlavxalar, yillar, xulosalar, sitatalar tagiga rangli qalam bilan chizib, alohida ajratib yozish ham mumkin.

Daftar saxifasiing chet tomonidan saxifaning to'rtidan bir qismicha joyni ochiq qoldirish lozim. Ochiq qoldirilgan joyga qo'shimcha ma'lumotlarni yozib borish, konspektni tekshirib, unga ayrim o'zgarishlar, aniqliklar kiritish maqsadga muvofikdir.

Seminar mashg'ulotlarida qatnashish, muhokama yetilayotgan masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirish har bir talabaning burchidir. Seminar qatnashchilari bir-birlarini diqqat bilan tinglashlari, bahslashuvlarga kirishib so'zlagan talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishlari, aniqliq va qo'shimchalar kiritishlari lozim.

Seminarda qatnashish ham ma'ruzani tinglash va yozish kabi katta mehnat qilish, tinmay va astoydil ishlash vaqtidir.

Kursdosh so'zlayotgan paytda, uni qo'lda qalam bilan tinglash, aytgan yangi fikr mulohazalarini yozib borish nihoyatda foydalidir.

Ma'lumki, o'qituvchi har bir muxokama qilingan masala bo'yicha, seminar oxirida o'rganilgan mavzu bo'yicha yakuniy fikr-muloxazalarni bildiradi, yakuniy xulosalar chiqaradi. Talaba o'qituvchining ana shu yakuniy fikrlarini, xulosalarini seminar daftariga, albatta, yozib olishi kerak. Ana shundagina seminar mashg'uloti talaba uchun muvoffaqiyatli yakunlangan, muhokama etilgan masala bo'yicha bilimlar puxta va chuqur o'zlashtirilgan bo'ladi.

2-mavzu. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini axborot tizimiga kiritish.

Reja:

1. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy dasturlari (IS, 1UZ, BEM, UzASBO, ERP Enterprise resource planning system) tizimining asosiy elementlari).
2. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga turli xil yondashuvlar va modeller asosida yoritish.
3. Buxgalteriya hisobi axborotining ta'rifi, tasniflanishi va xususiyatlari.
4. Schyotlar rejasi.

1. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy dasturlari (IS, 1UZ, BEM, UzASBO, ERP Enterprise resource planning system) tizimining asosiy elementlari)..

Oddiy hisob-kitoblar davrida savdo-sotiqning rivojlanishi hisob-kitob ishlarining yo'lga qo'yilishida katta turtki bo'ldi. Savdogarlar va boshqa ishbilarmonlar o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulklari va tovarlarining hisob-kitoblarini yozuvlarda yuritganlar. Hisob-kitob ishlarining yo'lga quyilishida O'rta va Uzoq sharq, Arab mamlakatlarida eramizning boshlarida shakllangan iqtisod, fan va madaniyat katta ta'sir ko'rsatdi. Vatandoshimiz buyuk matematik olim Al Xorazmiy o'zining "Al-Jabr Val Mug'obala" kitobida nol raqami va sonlar qatorini asoslab berdi va bu ish hozirgi hisoblashlar tizimiga ham asos qilib olingan. Bu o'z navbatida matematika, shu jumladan hisob-kitoblar uchun ham katta bir kashfiyot edi. Shu bois vatandoshimiz, buyuk olim Al-Xorazmiyni hisob-kitobning asoschilaridan biri deb atash mumkin.

Ikkiyoqlama yozuv vujudga kelgunga qadar oddiy hisob-kitoblar tizimining rivojlanishida arab dunyosining ta'siri juda katta bo'lgan. Bu borada iqtisodchi olim J.X. Pashoxo'jaevning qo'yidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

Biroq shuni ham aytib o'tish lozimki, buxgalteriya hisobi haqida adolatli mulohazalar L. Pacholidan qariyb ming yil oldin Muhammad payg'ambarimiz tomonidan ham bildirilgan. Chunonchi, Qur'oni Karimning 4 "Baqara" surasining 282-oyatida shunday yozilgan: "Ey mo'minlar, bir-biringiz bilan qarz muomalasini qilsangiz, yozib qo'yinglar, oralaringizdan biri kotib adolat bilan yozsin. Zimmasida qarz bo'lgan kishi yozdirsin". Ushbu oyatdan ko'rinib turibdiki, yozuv albatta kitob yoki daftarga qilingan, chunki alohida qilingan varaqqa yozilgan yozuvlarning yo'qolishi oson.

Payg'ambarimiz Muhammad sallohu alahi vasallamning "Oralaringizdan bir kotib adolat bilan yozsin" degan o'g'itlari qarzlarni hisob-kitob qiluvchi, kitob yurituvchi mutaxassis – "Buxgalter"ning vujudga kelishiga turtki bo'lmadimikin? Balki ana shu sabablarga ko'ra ham XV asrga kelib Olmoniyada "Buxgalter" kasbi va uning "Buxgalteriya" ish joyi vujudga kelgandir. Darvoqe "Buxgalteriya ucheti" so'zini nemischa so'z ekanligi va Rossiya hayotiga XVIII asrlardagina kirib kelganligi olimlar o'z ilmiy asarlarida tasdiqlaganlar².

Yuqorida bayon qilingan fikrlarimiz to'g'ri bo'lsa, O'rta Osiy yerlariga buxgalteriya hisobi haqidagi mulohazalar VIII-asr boshlarida kirib kelgan. Biroq, bu davrda buxgalteriya hisobi fan sifatida to'liq shakllanmagan.

1494 yil italyan monaxi, matematik Luka Pachioli o'zining matematik kitobiga yozgan ilovalarida o'sha davrda italiyada savdogarlar o'rtasida tarqalgan hisob-kitob ishlari amaliyotini o'rganish asosida, ikkiyoqlama buxgalteriyaning qo'llanilishini batafsil yoritib berdi (10, 42-bet). L. Pachioli buxgalterning boshlang'ich balans tuzishdagi harakatini quyidagicha tavsiflaydi: "...barcha debet moddalarining, qaysiki jami ataladigan summasini, keyin xuddu shuningdek kredit jami summasini aniqlash zarur; bulardan birinchisi – debet bo'yicha jamisi, ikkinchisi – kredit bo'yicha jami deb ataladi. Agar ushbu ikkita summa bir-biriga teng bo'lsa, sizning kitoblaringiz yaxshi yuritilgan degan xulosaga kelish mumkin." (14, 28-bet). Bu amaliyot natijalarini umumlashtirish va unga matematikaning qo'llanilishi hisob g'oyasining vujudga kelish davrini boshlab berdi.

L. Pachioli tomonidan "hisob g'oyasi" ning ifodalanishi juda oddiy falsafiyashtirilgan bo'lib, unga ko'ra mablag'lar va boshqa ob'ektlar harakatiga oid bo'lgan har bir jarayonning "sabab va oqibati" ochib berildi. Bu metodni o'sha davrda yirik Italiya savdogorlari va manfaktura ishlab chiqaruvchilari qo'llaganlar. L. Pachiolining buyuk xizmati shundan iboratki, u birinchi bor ikkiyoqlama yozish buxgalteriya tajribasini asosladi, uning savdo korxonalari misolida qo'llanilishini kompleks yoritib berdi va butun hisoblar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi. Bu

² П.Н.Василенко. Курс бухгалтерского учета. В.о. "Саюзоргучет", М., 1938, П.А. Костюк Бухгалтерский словарь, Высшая школа, Минск, 1971.

ta'limot o'sha davrlarda dastlabki buxgalteriya hisobi g'oyasi vujudga kelganligidan dalolat berar edi. Ushbu kitobda yoritilgan g'oyalar dastlab Yevropaga va keyinchalik butun dunyoga tarqaldi.

Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozishning boshlang'ich holati asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Uning taraqqiy etishida savdogar va ishbilarmonlarning o'zlari boshqarayotgan biznesning ma'lum bir sanadagi moliyaviy holatini va ma'lum bir vaqt intervalida olingan foyda summasini va uning biznes egalari o'rtasida taqsimlanishini bilishga bo'lgan intilishi asosiy omil bo'lib hisoblandi. Ammo, buxgalteriya hisobi g'oyasi qisqa vaqt ichida darhol keng ommoviylashmadi, bu jarayon biznesmenlar faoliyati tartib qaidalarini umumiyashtirish qancha uzoq vaqt davom etgan bo'lsa, umumiy tartibga keltirilgan buxgalteriya hisobiga o'tish ham shunchalik uzoq davom etdi.

2. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga turli xil yondashuvlar va modeller asosida yoritish

L. Pachiolidan keyingi davr buxgalteriya hisobi yuritilishining umumqabul qilingan tartibga o'tishi bilan xarakterlanadi. Iqtisodiy taraqqiyot darajasi va munosabatlarning shakllanishi alohida individual biznesmenlar o'rtasida o'z xohish irodasi va texnik saviyasiga ko'ra tashkil etilgan buxgalteriya hisobidan umum qabul qilingan tartib asosida yuritiladigan buxgalteriya hisobiga o'tish zaruriyati va ehtiyojini yuza keltirdi. Hisob-kitoblarni umum o'lchov birligida yuritilishi, bank tizimi va kredit beruvchi muassasalarning qaror topishi, davlat tomonidan tartib qoidalar va soliqlarning joriy qilinishi buxgalteriya hisobini hamma uchun umumiy bo'lgan tartibda yuritish zaruriyatini keltirib chiqargan bo'lsa, mulkdorlarning biznes faoliyati to'g'risida o'z vaqtida batafsilroq, ishonchliroq ma'lumotlarga ega bo'lishga, biznes faoliyati ustidan nazorat o'rnatish, soxtakorlik, aldash va o'g'rilik holatlarini kamaytirishga bo'lgan intilishi buxgalteriya hisobining ilg'or usullarini qo'llashni ehtiyoj qilib qo'ydi.

L. Pachiolidan keyin buxgalteriya g'oyasini taraqqiy ettirishda mualliflar Dutchman, Simin Stivin va Jak Savari buyuk hissa qo'shishdi. 1605 yili Dutchman, Simon Stivin tomonidan yillik intervalda yuritiladigan foyda va zararlar hisobini shakllanish manbalari va ularning ikki yoqlama yozish tartibini himoya qilib chiqdi. 1655 yil Jak Savari interval vaqt oralig'ida buxgalteriya balansi tuzishni ilk bor taklif etdi. Ushbu g'oyalarni umumlashtirish natijasida 1673 yili Fransiyada Tijorat Kodi barcha biznes uchun har ikki yilda buxgalteriya balansini tuzishni joriy qildi (21, 5-bet).

1685-1792 yillar davomida buxgalteriya ucheti g'oyasini taraqqiy ettirishda Fransuz olimi Mate de la Port schotlar klassifikatsiyasini tuzib chiqdi (10, 44- bet). Undan keyin Edmond Degranj tomonidan 1795 yil Parijda hisob-kitoblarning Amerika formasi (Jurnal-Bosh) yoqlab chiqildi va bu forma o'sha paytdagi buxgalteriya hisobi g'oyasidagi yutuqlarni har tomonlama o'zida mujassamlantirdi (10, 6-bet).

XVIII asrning o'rtalariga kelib Angliyada sanoat buxgalteriyasi taraqqiy eta boshladi. Sanoat buxgalteriya hisobining birinchi nazariyotchilaridan biri F.B. Kronxeylm 1818 yili savdo buxgalteriyasi ichki ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq aks ettira olmasligini ta'kidlab, hisobni ikki qismga, ya'ni ishlab chiqarish va buxgalteriya hisobiga bo'lishni asoslab berdi. Bunda birinchisiga – ishlab chiqarish hisobiga material, ishlab-chiqarish, tayyor mahsulot hisoblarini kiritib, faqat natural o'lchovda yuritishni ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchisiga – ananaviy buxgalteriya tizimi hisoblarini kiritdi (10, 48-49 betlar).

XIX asrning o'rtalariga kelib, Yevropaning turli mamlakatlarida buxgalteriya hisobi bo'yicha ilg'or g'oyalar rivojlanib bordi. Bunda buxgalteriya hisobi nazariyasining yuzaga kelishi hisobga olayotgan ob'ektlar to'g'risidagi qarashlarni butunlay o'zgartirdi. Xo'jalik sohasidagi jarayonlar hujjatlashtirila boshlandi, axborot manbalari yuzaga keldi va axborot ko'rsatkichlarini yangicha talqin qilish nazariyasi yaratila bordi (10,51-bet).

XIX asrning oxirlariga kelib buxgalteriya hisobi taraqqiyoti uchun juda qo'lay muhit yuzaga keldi. Bu shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1) industrial sanoat revolyusiyasi natijasida biznesning masshtabi va ularning pulda o'lchaniladigan operatsiyalari xilma-xilligi kengayishi; 2) davlat miqyosida budjet va moliyaning tashkil etilishi; 3) qarz va kapital (sarmoya) beruvchilarning ajralishi; 4) mulkdorlar va menejerlarning ajralishi; 5) mas'uliyati cheklangan

jamiyat prinsiplarining ishlab chiqilishi; 6) tijorat banklari faoliyati kengayishi; 7) aksioner jamiyatlari va aksioner kapitalining vujudga kelishi; 8) qonuniy muhitning vujudga kelishi.

Bu shart-sharoitlar buxgalteriya hisobining umumtan olingan usullarining keng joriy qilinish jarayonini tezlashtirdi. Yuzaga kelgan muhit o'z navbatida buxgalteriya hisobi uslublarini umumlashtiradigan va uni ommaviylashtiradigan professional tashkilotlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Standartlar va etika qoidalariga homahang professional buxgalterlarning vujudga kelishi Yevropa mamlakatlarida buxgalteriya hisobi professional idoralarining shakllanishi bilan bog'liqdir. 1854 yil Qirol Charter Shotlandiyada buxgalterlar jamiyatini tuzishga asos soldi. 1880 yil Angliya va Uelisda Charter Buxgalterlar Instituti tashkil etildi va 1887 yil AQShda Jamoat Buxgalterlar Assotsiatsiyasi (AAPA) faoliyat boshladi va "Journal of Accountancy" nashriyot organiga ega bo'ldi (21, 5-bet; 11, 35-bet). 1904 yilda AQShda buxgalterlarning birinchi xalqaro kongressi bo'lib o'tdi va mamlakatlar o'rtasida buxgalteriya hisobi sohasida fikrlar bilan almashish imkoniyati yuzaga keldi. Keyinchalik dunyoning turli xil mamlakatlarida davriy ravishda konferensiyalar bo'lib turdi, lekin hamkorlik borasida muhim kelishuvga kelinmadi.

O'sha davrlarda ko'p hollarda buxgalterlar faqat moddiy resurslar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarning kirim va chiqimiga oid bo'lgan yozuvlarni yuritish bilan chegaralanishar edi. Buxgalterlar umumqabul qilingan qoida va tamoyillarning yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli ko'p qiyinchiliklarga duch kelganlar. Bularga dividend summasini taqsimlash, to'lovlarni amalga oshirish, asosiy vositalar amortizatsiya ajratmalari, asosiy va aylanma mablag'larni baholash bilan bog'liq masalalarni kiritish mumkin. Bu moliyaviy natijalarni shakllantirishda va hisobot tuzishda qiyinchiliklarga sabab bo'lgan. Bu muammolarni hal qilish buxgalterlarning professional tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar edi.

Buxgalteriya hisobi fanining shakllanishi va rivojlanishida Amerika-Angliya davlatlari iqtisodchi olimlarining o'rni beqiyosdir. Dunyoda birinchi buxgalterlardan biri sifatida Amerika buxgalteriyasi asoschilaridan biri Charlz Ezra Shprug (1842-1912) e'tirof etiladi. U buxgalteriya hisobi faning algebra, falsafa va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab berdi va birinchilardan bo'lib buxgalteriya hisobi fanidan dars berdi. Ch.E. Shprug **Aktiv = Majburiyat + Kapital** formulasini yaratdi.

XIX asrning oxirlariga kelib buxgalteriya hisobi fan sifatida to'liq shakllandi. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" faniga asos solindi. Uning asoschilaridan biri Amerkalik olim Ye.S. Xendriksendir. Bu davrda ushbu olim va boshqa Amerika mutaxassislari tomonidan buxgalteriya hisobi ikki yo'nalishga, ya'ni moliyaviy va boshqaruv hisoblariga ajratildi. Ushbu tarkibiy qismlarning nazariy va metodologik asoslari yaratildi.

1937 yilda Germaniyada, 1947 yil Fransiyada buxgalteriya hisobi schotlar milliy rejasi paydo bo'ldi va schotlar rejasini qo'llash majburiy holatga keltirildi³. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida milliy hisob tizimi shakllandi va taraqqiy etdi.

4. Buxgalteriya hisobi axborotining ta'rifi, tasniflanishi va xususiyatlari

Xalqaro biznesning keyingi ikki o'n yillikda tez sur'atlarda o'sishi buxgalteriya hisobining professional tashkilotlari tomonidan xalqaro biznes faoliyati va buxgalteriya hisobi xalqaro muammolariga katta ahamiyat qaratishni zaruriyat qilib qo'ydi. Xalqaro biznes faoliyati kuchli raqobat asosida rivojlanib bordi. Agar xalqaro raqobat muommalarini, bankrotlikka olib kelish holatlarini oldindan ko'rish imkoni bo'lmasa xalqaro biznes yetarli natija bermasligi aniq edi. Ko'pgina firmalarda xalqaro biznes aspektlarini kengaytirishda raqobat sharoitini, boshqa mamlakatlar qonunlarini yetarli bilmaslik, biznes amaliyotida, jumladan buxgalteriya hisobi amaliyoti standartlarida keskin farqlarning mavjudligi, chet tili va chet el valyutasida ish olib borish, uning konvertatsiyasi, daromadlarni o'z mamlakatlariga o'tkazish kafolatlari bilan bog'liq muammolarga duch kelishar edi. Bu muammolarni hal qilish milliy til va valyutada tuzilgan buxgalteriya hisobotlarini tarjima qilish, tuzatishlar kiritish va konsolidatsiya qilish bilan bog'liq masalalarga yechim topishni taqozo qildi. Sarmoyadorlar va kreditorlarning xalqaro biznesni

³ Joel G. Siegel, David Minars. Introduction to accounting I. I. Harper Perennial, New York, 1992. 4-5 p.

rivojlantirishga bo'lgan qiziqishi xalqaro biznes muammolarini tabora adekvat tushunishini va xalqaro moliyaviy hisobotlar professional buxgalteriya hisobi firmalar tomonidan tuzilishini va tekshiruvdan o'tkazilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Xalqaro biznes faoliyatida ushbu muammolar buxgalteriya hisobining quyidagi masalalarini xalqaro darajada hal qilishni shart qilib qo'ydi: 1) Buxgalteriya hisobini yuritishning konseptual qoidalarini umumlashtirish; 2) aktivlar, majburiyatlar va sarmoyalar hisobi masalalarini uyg'unlashtirish; 3) inflyatsiya va narxlar o'zgarishi sharoitida buxgalteriya hisobini yuritish; 4) moliyaviy hisobot va axborotlarni taqdim qilish; 5) moliyaviy hisobotning konsolidatsiyasi; 6) milliatlararo korporatsiyalarda moliyaviy hisobot; 7) boshqaruv hisobi masalalari bo'yicha tajriba almashishni yo'lga qo'yish.

Xalqaro sarmoyadorlar, kreditorlar va menejerlarning xalqaro biznes faoliyatlari to'g'risida xalqaro o'lchovlar va tamoyillar asosida tayyorlangan axborotlarga bo'lgan extiyoji milliy buxgalteriya hisobi tamoyillari va standartlarini mujassamlantirish asosida xalqaro biznes tilini vujudga keltirishni taqozo qildi. Buxgalteriya hisobining xalqaro biznes tili sifatida shakllanishida turli xil mamlakatlarda buxgalteriya hisobining ayni bir maqsadlarga qaratilganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Chunki, maqsad bir bo'lsa, unga erishish yo'llarini va yondashuvlarini umumlashtirish qiyin kechmaydi. Bularga buxgalterlarning boshqa mamlakatlarning samarali tajribasini o'rganish va ularni o'z mamlakatlarida qo'llash mumkinligini misol keltirish mumkin. Masalan, ko'pchilik davlatlarda inflyatsiya jarayonini turlicha yondashish asosida hisobga olishga urinib ko'rganlar va o'z metodik tavsiyalarini ishlab chiqqanlar. Ayrim mamlakatlarda boshqalarnikiga qaraganda bu masalaga ancha muvaffaqiyatli yondashishgan. Dunyo mamlakatlaridagi ushbu yutuqlarni o'rganish va uni o'z mamlakatlarida adaptatsiyalash va qo'llash yaxshi samara bergan. Xuddi shuningdek, boshqa buxgalteriya hisobi mavzularida ham hamkorlik qilish va eng progressiv deb hisoblangan usul va uslublarni qo'llashi buxgalteriya hisobining takomillashishiga va integratsiyalashuviga olib kelgan.

AICPA rahbarlaridan biri M.N. Chetkovich quyidagicha ta'kidlaydi: "Buxgalteriya hisobi bu biznes tilidir va bu xalqaro biznes korxonalari extiyojiga xizmat qilsa, buxgalteriya hisobi va hisoboti standartlarini unifikatsiyalash yo'li bilan u xalqaro tilga aylanadi." (16, 42-bet). Xalqaro buxgalteriya hisobiga unifikatsiyalash yo'li bilan erishish buxgalteriya hisobi buyicha xalqaro tashkilotlarni ta'sis qilish zaruriyatini tug'dirdi.

O'zbekiston buxgalteriya hisobi tarixi ham jahon buxgalteriya hisobi tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va uning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shgan. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti asoslari sobiq ittifoq davrida ma'muriy buyruqbozlik, yuqoridan qat'iy rejalashtirish sharoitida ushbu tuzum talablariga javob beradigan shaklda tashkil topdi va rivojlantirildi. Bu davr juda uzoq vaqt davom etganligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, bu davrda buxgalteriya hisobining xarakterli xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sobiq ittifoq davrida buxgalteriya hisobining xarakterli xususiyatlari, buxgalteriya hisobini turg'un holatga kelib qolishga asosiy sabablar va uni taraqqiy ettirishdagi to'siqlar quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan, sobiq ittifoq davrida buxgalteriya hisobi davlat mulkini asrash va davlat rejalarining bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish vositasi sifatida qaralar edi. Shu sababli, korxonalarda buxgalterlar davlat nazoratchisiga aylanib qolgan edi. Korxonalarda ustav fondi davlat tomonidan tashkil etilar, yuqoridan rejalar belgilanilar, ishchi va xizmatchilarga tarif stavkalari bo'yicha ish haqi hisoblanilar, xarajatlar smetasi va tannarx tasdiqlanar va moliyaviy natijalar uncha ahamiyat kasb etmas edi. Eng muhim ko'rsatkich davlat rejalarining bajarilishi edi. Ushbu tuzumning talablariga mos, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan buxgalteriya hisobi va nazorat tizimi shakllantirildi.

Ikkinchidan, buxgalteriya hisobi xalq xo'jaligining tarmoqlari bo'yicha, ya'ni sanoatda, qishloq xo'jaligida, qurilishda, savdoda, matlubot kooperatsiyasida, maishiy xizmat tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan. Buxgalteriya hisobining o'ta tarmoqlanib ketishi umumiy bo'lgan qoida va tamoyillarni yaratishga to'sqinlik qilar va buxgalteriya hisobi sohasini murakkab sohaga aylantirib quygan edi. Bu o'z navbatida xalq xo'jaligining alohida tarmoqlari uchun ushbu soha xususiyatlarini biladigan buxgalter mutaxassislarini tayyorlashni talab etar edi.

Uchinchidan, buxgalteriya hisobi tashqi dunyo bilan aloqa qilish, boshqa mamlakatlardagi buxgalteriya hisobi sohasidagi yutuqlardan foydalanish, xalqaro buxgalteriya hisobi professional tashkilotlariga a'zo bo'lish, buxgalteriya hisobi xalqaro elektron pochtasidan foydalanish huquqlaridan to'liq mahrum qilingan edi. Bu esa boshqa sohalar kabi buxgalteriya hisobining ham turg'un holatga kelib qolishga, xalqaro sohadagi taraqqiyot darajasidan orqada qolishga sabab bo'ldi.

To'rtinchidan, mamlakatda buxgalteriya hisobini rivojlantirish, professional buxgalterlarni tayyorlash, tajribasini orttirish, buxgalterlar etikasi bilan shug'ullanadigan professional buxgalterlar tashkiloti mavjud emas edi. Bu esa sohada erishilgan eng ilg'or tajribalarni joriy qilish, buxgalterlarning professional tajribasini yuksaltirish va sertifikatlash ishlarini yo'lga quyishga imkon bermas edi.

Mustaqillikka erishish boshqa sohalar kabi buxgalteriya hisobini taraqqiy ettirish, uni xalqaro tamoyillar talablariga uyg'unlashtirish imkonini yaratib berdi. Rejali ma'muriy iqtisoddan bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik yuritish tizimiga o'tish borasidagi iqtisodiy islohatlarda buxgalteriya hisobini isloh qilish ham muhim o'rin tutdi.

Buxgalteriya hisobini isloh qilishda rejali ma'muriy iqtisoddagi buxgalteriya hisobidan butunlay voz kechib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan to'liq andoza olib, "butunlay yangi" buxgalteriya hisobi tizimini yaratish mumkin emas edi. Sobiq ittifoq davrida buxgalteriya hisobi va nazorat ushbu tuzum talablariga javob beradigan kuchli soha sifatida shakllangan edi. Uni qayta qurishda tanqidiy yondashish, yutuqlari va ilg'or usullaridan foydalanish va bozor munosabatlariga moslashtirish kerak edi. Bundan tashqari sobiq ittifoq davrida buxgalterlarning katta armiyasi vujudga kelgan edi. Buxgalterlarni qayta tayyorlash va ularda yangi bozor munosabatlari sharoitida ishlashga ko'nikma- tajriba hosil qilish ancha vaqtni taqozo qilar edi. Bu boradagi vazifalarning asosiy mazmunini xalqaro standartlar talablariga javob beradigan va milliy xususiyatlarimizni va bu sohada erishgan ilg'or yutuqlarimizni tan oladigan yangi milliy buxgalteriya hisobi tizimimizni shakllantirish tashkil etdi.

Buxgalteriya hisobi isloh qilishning tomoyillarini ishlab chiqishda va uning joriy etilishida yetakchi tashkiloti sifatida 1992 yili O'zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar Assotsiatsiyasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

1995 yil 1 yanvardan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan xalqaro tomoyillar talablariga javob beradigan "Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning tashkil topish tartibi to'g'risidagi" Nizom joriy qilindi. Ushbu Nizomga muvofiq xarajatlar ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari va favquloddagi zararlariga bo'lindi va moliyaviy natijalarni bosqichma-bosqich aniqlash tartibiga o'tildi.

1996 yili 30 avgustda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun buxgalteriya hisobining xalqaro tamoyillar talablariga javob beradigan maqsad va vazifalarini, asosiy tamoyillarini, moliyaviy hisobot va uning konsolidatsiyasi masalalarini yoritib berdi.

1998 yil avgustidan e'tiboran hozirgi kunga qadar moliyaviy xisobot tuzish va taqdim kilishning konseptual asoslari va 23 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va Auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasiga (IFAC) assotsiyalashgan a'zosi sifatida qabul qilinishi mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro integratsiyalashuvida muhim vaqea bo'ldi. IFACga a'zo bo'lish tamoyillariga to'liq muvofiq bo'lish uchun, hamda buxgalteriya professiyasining roli va sifatini oshirish maqsadida Assotsiatsiya mazmunan yangi ishlarni amalga oshirishi lozimligi belgilandi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar va XIIKlarning daxlsizligi va rivoji davlat miqyosida kafolatlanib kelinishi ham buxgalteriya hisobini taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "...xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishlarni kuchaytirish, kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish zarur"ligi masalasining qo'yilishi mamlakatimizda investitsion muhitni barqarorlashtirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilab olishga asos bo'lib xizmat qilmoqda (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoşda.–T.: "O'zbekiston", 1999. 36-bet.) Mamlakatimizda xorijiy

investitsiyalarning oqimi va XIIKlar rivoji uchun qulay qonunchilik bazasi yaratilgan. Xorijiy investorlar va XIIKlarning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlarga “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi (1998 yil), “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi (1998 yil), “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi (2000 yil), “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi (1999 yil), “Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (2001 yil) Qonunlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo‘shimcha rag‘batlantirish va imtiyozlar to‘g‘risida va ularning huquqiy himoyasiga oid o‘ttizdan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijalari va bu borada jahon tajribasi investitsion muhitni barqarorlashtirishda buxgalteriya hisobi ishlarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish muhim omil sifatida qaralishini taqozo qilmoqda.

Hozirgi kunda XIIKlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xorijiy investorlar talablariga uyg‘un bo‘lgan buxgalteriya hisobini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘rinda soha olimlari A.K.Ibrahimov va A.A.Karimovlarning (5-bet) “...chet ellik hamkorlar uchun buxgalteriya hisobi xalqaro andozalar asosida taqdim qilinishi zarur”, - deb ta’kidlagan fikrlarini asosli deb hisoblaymiz.

Milliy iqtisodda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishda XIIKlarni buxgalteriya hisobining muhim birligi sifatida tavsifini e’tirof etish va ularni tasniflash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jahon tajribalarining mamlakatimiz korxonalariga joriy etilayotganligidan dalolat beradi. Ma’lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo‘lishidan qat’iy nazar ma’lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda ta’kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- axborot yetkazib beruvchilar (ma’muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o‘rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma’muriyat tomonidan noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishi;

- noto‘g‘ri axborotlarga asoslangan holda xo‘jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;

- iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;

- axborotlardan foydalanuvchilarda ma’lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning yetishmasligi va h. k.

Mana shu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to‘g‘risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar yetarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma’lumotlarni olish huquqiga ega bo‘lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar. Bundan tashqari, ular korxona ma’muriyatiga bo‘ysunmaydigan va uning tazyiqlaridan holidirlar.

Ayrim manbalarga ko‘ra buxgalter-auditor kasbi XVII asrning o‘rtalarida Yevropaning aksiyadorlik kompaniyalarida aksiyadorlar, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o‘rtasidagi munozarali masalalarni hal qilib berish zarurati tufayli shakllana boshlagan. O‘sha paytlarda mustaqil faoliyat ko‘rsatib, korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyati to‘g‘risida aniq xulosa beradigan mutaxassislariga ehtiyoj kuchaygan.

Natijada, 1862 yili Angliyada, 1867 yili Fransiyada, 1937 yili esa AQShda majburiy audit to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan. Hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o‘zining tashkiliy huquqiy infratuzilmalariga ega bo‘lgan audit institutlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Auditorlik kasbi turli xil mamlakatlarda turlicha nomlanib kelingan. Masalan, Amerikada jamoatchi-buxgalter, Fransiyada buxgalter ekspert yoki schotlar bo‘yicha komissar, Germaniyada xo‘jalik nazoratchisi, yoki kitoblar (DasBuch) nazoratchisi, qator anglo-saksoniya mamlakatlarida

kompaniyaning moliyaviy faoliyatini nazorat qiladigan taftishchi kabilar.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishiga 1929-1933 yillarda jahon iqtisodiy tanazzuli katta turtki bo'ldi. Bu davrda aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa korxonalarning ko'pchiligi inqirozga yuz tutdilar. Natijada hisobotlarni, xususan, balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini tasdiqlash tartibini qat'iy belgilash, ularning to'g'riligi va haqqoniyligini mustaqil auditorlar tomonidan tekshirish ehtiyoji yuzaga kelgan.

Audit XIX asr o'rtalarida Shotlandiyada ham vujudga kela boshlagan.

Ingliz temiryo'chilari, sug'urta va boshqa investorlar Shimoliy Amerikaga yo'l olishganida ular bilan birga yirik ingliz sarmoyador (kreditor)larining manfaatlarini himoya qiladigan mustaqil taftishchi-auditorlar ham birga borganlar.

1844 yilda Angliyada aksiyadorlik kompaniyalarining buxgalteriya schotlarini, aksiyadorlarga beriladigan hisobotlarni yiliga kamida bir marta mustaqil buxgalterlar tekshiruvidan majburiy o'tkazilishini talab qiladigan qonunlar chiqarilgan.

Dastlab auditorlik vazifalari aniq belgilanmagan bo'lib, barcha investorlar, aksiyadorlar, kreditorlar auditorlarni o'zlarining himoyachisi sifatida qabul qilganlar.

Auditorlar haqida ularni aksiyadorlar oldidagi mas'ul shaxslar deb qarash 1929 yilda «Kompaniyalar to'g'risidagi qonun» chiqarilishi bilan o'zgardi. Ushbu qonunga muvofiq barcha kompaniyalar o'zlarining moliyaviy hisobotlarida foyda va zararlarni majburiy ravishda ko'rsatishlari belgilab qo'yildi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, markazlashgan davlatchilikning barpo bo'lishi hamda rivojlanishi natijasida mamlakatni boshqarish uchun hisob, nazorat va moliya ishlariga zaruriyat kuchaygan. Ularning ildizlari insoniyatning uzoq tarixiga borib taqaladi. Masalan, auditorlik professor P. I. Kamyshanov ma'lumotlariga ko'ra taxminan eramizdan oldingi 200 yillarda kasb sifatida shakllana boshlagan. Bu paytlarda kvestorlar ya'ni Rim Imperiyasi davrida moliya va sudlov ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxslar joylardagi hukumat buxgalterlari ustidan nazorat qilib turganlar. Kvestorlarning hisobotlari Rimga yuborilib, imtihon qiluvchilar tomonidan eshitilgan. «Auditor» lotinchadan «eshituvchi» degan tushuncha ham shundan kelib chiqqan.

Demak, «Audit» tushunchasi lotincha bo'lib, «auditing» - aynan tarjimasi «u eshitayapti», «eshituvchi» degan ma'nolarni bildiradi.

Amir Temur tuzuklarida ham hisob, moliya va nazorat ishlari mamlakatni boshqarishda muhim vosita bo'lganligi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Masalan, «Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshiruvchi kishilar tuzugi»da saltanatni boshqarishda hisob va nazorat ishlari haqi-da shunday deyilgan: «... har o'lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Bulardan biri raiyat uchun bo'lib, undan yig'iladi-gan soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliy-soliq miqdori, soliq to'lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig'ilgan mablag'ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo'lgan mablag' hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo'qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo'l bilan yig'ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin». ⁴

«Sipohga haq taqsimlash tuzugi»da esa o'sha zamonga xos nazorat tizimi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «Mulk qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlasinlar

3-mavzu. Buxgalteriya hisobida pul mablag'lari hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobini

avtomatlashtirish

Reja:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarining qo'llanilishi.

¹ Темур тузуклари. Тошкент: 1996, 125 бет.

2. Buxgalteriya o'tkazmalari jarayoni. Pul mablag'larining analitik hisobi. Kassa kirim va chiqim orderi, kassa kitobi.
3. Pul hujjatlari. Avans hisoboti. Kiruvchi va chiquvchi to'lov topshiriqnomasi
4. To'lov talabnomasi. Bank ko'chirmasi. Bank korporativ plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar hisobi

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarining qo'llanilishi

Buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro professional tashkilotlarning yuzaga kelishi va taraqqiy ettirilishida AQShdagi Amerika Buxgalteriya Hisobi Assotsiatsiyasi (AAA), Buxgalterlarning Milliy Assotsiatsiyasi (NAA) va Sertifikatli Jamoat Buxgalterlarning turli xil jamiyatlari muhim rol o'ynaydi. Natijada, xalqaro buxgalteriya hisobi muammolarini hal qilish maqsadida 1972 yili Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan Buxgalterlarning Xalqaro X kongressida hamkorlik doirasida muhim kelishuvlarga erishildi. Ushbu kelishuvga muvofiq 1973 yili Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi professional tashkilotlar **Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlari Qo'mitasi (IASC)**ni tuzishga asos soldilar (1.4-rasm).

1.4-rasm. 1973 yil Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlari Qo'mitasiga asos solgan mamlakatlar⁵.

Buxgalteriya hisobining keyingi taraqqiyoti bevosita buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishi bilan bog'liq.

Restrukturizatsiya doirasida 2001 aprelida Buxgalteriya Hisobi bo'yicha Xalqaro Standartlar Qo'mitasi **Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo'yicha Kengashga (MHXSK) (IFRSB)** aylantirildi. Ushbu sanadan e'tiboran ishlab chiqiladigan xalqaro standartlar Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari deb ataladigan bo'ldi.

Moliyaviy Hisobot Xalqaro Standartlari Kengashi (IFRSB) (2001 yilga qadar Qo'mita edi - IASC) – butun dunyodagi buxgalteriya hisobi sohasi faoliyatidagi vakillardan iborat a'zolarni birlashtirgan, hukumatga oid bo'lmagan xalqaro buxgalteriya hisobi tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va doimiy takomillashtirib borish bo'lib hisoblanadi.

IASV shtab kvartirasi London shahrida joylashgan. Ushbu xalqaro tashkilotning Kengashiga ko'pmilliard oborotdagi global tashkilot va kompaniyalarda, dunyo banklarida yuqori mansablarda ishlagan, katta obro' e'tiborga va professional malakaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb qilingan.

1975 yilda qo'mita tomonidan birinchi buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Hisob siyosatining ochiqqlanishi"ni nashr ettirdi.

2002 yili Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining direktivasini qabul qiladi, qaysiki ushbu hujjatda Yevropa birjalarida aksiyalari kotirovka qilinadigan barcha kompaniyalar moliyaviy hisobotini MHXSlariga muvofiq taqdim etishlari majbur ekanligi qayd etildi.

2002 yildan e'tiboran Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Kengashi va AQShning Moliyaviy Hisob Standartlari Qo'mitasi tomonidan MHXS va AQSh Buxgalteriya Hisobining

⁵ Штурмина О. С. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебное пособие. УлГТУ, 2010. 21-бет

Umumqabul Prinsiplarini (GAAP) bir-biriga o‘ta muvofiqlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlandi. O‘ta muvofiqlashtirishni joriy qilishdan maqsad umumiy universal komplektlangan standartlarni yaratish bo‘lib hisoblanadi, qaysiki xalqaro birjalarga hech qanday to‘siqlarsiz ikkalasining biri bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotlarlar taqdim etiladi.

1992 yilda qabul qilingan IASCning ustavida ushbu tashkilotning asosiy maqsadi quyidagicha yoritilgan:

- “Jamoatchilikning manfaatlaridan kelib chiqib, moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish jarayonida rioya qilish va uning butun dunyo tomonidan qabul qilinishi va rioya qilinishini qo‘llab-quvvatlash uchun buxgalteriya hisobi standartlarini shakllantirish va chop ettirish; hamda
- moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishga doir Nizom, hisob standartlari va muolajalarini yaxshilash va kelishuvi ustida muntazam ishlash.

IASC ishlari professional buxgalterlar tomonidan tan olinishi bilan bir qatorda biznes hamjamiyatlari, kompaniyalarning moliyaviy menejerlari, moliyaviy tahlilchilar, fond birjalari, huquqshunoslar, bankirlar va qimmatli qog‘ozlar va savdo agentliklari, butun tadbirkor va ishbilarmonlar tomonidan e‘tirof etilmoqda va ulardan foydalanuvchilarning qatori kengayib bormoqda.

1983 yildan 2001 yilga qadar IASC tarkibiga Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasi Qo‘mitasiga (IFAS) a‘zo bo‘lgan barcha buxgalter va auditorlar-ning professional tashkilotlari kirgan. Qo‘mita tomonidan 40 tadan ortiq buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS) ishlab chiqilgan. Qo‘mita a‘zolari tomonidan IASCga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda BHXSlarining qo‘llanilishi nazorat qilib boriladi. Lekin, IASC xalqaro standartlarning qo‘llanilishini majburiy tarzda amalga oshirmaydi. Chunki, har bir mamlakat o‘zining qonunlari doirasida milliy xususiyatlarini inobatga olgan milliy buxgalteriya hisobi standartlaridan foydalanishi mumkin.

2001 yildan e‘tiboran Buxgalteriya Hisobi Xalqaro Standartlari Qo‘mitasi Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Kengashiga aylantirildi (MHXSK). MHXSK **Vosiylik institutiga** bo‘ysinadi (1.10-rasm). Vosiylik institutini esa Kuzatuv Kengashi tasdiqlaydi.



Kuzatuv Kengashi va Vosiylik instituti Kengashilari va Qo‘mitasi o‘rtasidagi bog‘liqlik va hisobdorlikni quyidagi 1.11-rasmda kengroq ko‘rish mumkin.

Kuzatuv Kengashining asosiy vazifasi – moliyaviy hisobotning shakli va mazmuni uchun javob beradigan kapital bozorini tartibga soluvchi bilan Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Fondi (MHXSF) o‘rtasida rasmiy hamkorlikni o‘rnatishdan iborat.

Kuzatuv Kengashining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- Vosiylikni tasdiqlash protsedurasini ishlab chiqish va MHXSF ustaviga muvofiq ularning tarkibini tasdiqlash;
- MHXSKning moliyalashtirishni ta‘minlash bo‘yicha Vosiylik instituti ishlarining maqsadga muvofiqligi va qonuniyligiga baho berish;

⁶ 2016 PricewaterhouseCoopers. Все права защищены. Учебное пособие. Подготовлен Академией PwC для экзаменов ДипИФР в 2016 году. 0103. <https://www.pwc.ru/ru/training/assets/dipifr-dec2014-textbook.pdf>

- MHXSK standartlarni muhokama qilish, ma'qullash va chop ettirish bo'yicha Vosiylilik institutining monitoring ishlariga baho berish;

11-rasm. MHXS Kengashning strukturasi⁷

• MHXSF tomonidan MHXSK ustidan nazorat funksiyasini amalga oshirishda standartlarni yaratishda potensial ta'sir ko'rsatadigan tartibga soluvchi, huquqiy va siyosiy hodisalarni aniqlab olishdagi javobgarligi doirasidagi masalalarni Vosiylilik instituti a'zolari bilan muhokama qilish;

• MHXSF kun tartibiga keng ijtimoiy qiziqishni o'yg'otuvchi moliyaviy hisobotni muhokama qilish masalalarini qo'yish.

Vosiylilik institutining funksiyalari qilib quyidagilar belgilangan:

- MHXSK va Standartlar bo'yicha Maslahat Kengashining a'zolarini tayinlash;
- MHXSlari bo'yicha barcha organlarning ishi samaradorligini nazorat qilish;
- Moliyalashtirishni ta'minlash;
- Budjetni tasdiqlash;
- Ustavga o'zgartirish kiritish

MHXSK (International Accounting Standards Board – IASB) 15 ta a'zodan tashkil topadi (shunday 12 tasi doimiy asosda ishlaydi) va vosiylar tomonidan 3 yilda 5 yilgacha tayinlanadi.

MHXSKning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiritilgan:

- ***MHXSlarini ishlab chiqish va nashrdan chiqarish;***
- ***standartlar loyihalarini tayyorlash va ommaviylashtirish;***
 - ***standartlar loyihalarini muhokama qilish uchun ommaviylashtirishdan olingan takliflar va sharhlarni ko'rib chiqish tartibini belgilash;***
- ***xulosalar yasash uchun asoslarni ommaviylashtirish.***

MHXSKning asosiy quyidagi uchta maqsadi e'tirof etilgan:

• ***Jamiyat maqsadlarida yuqori sifatli, tushunarli va amaliy joriy etiladigan buxgalteriya hisobining butun dunyo standartlarini yaratish, qaysiki bu hujjatlar xalqaro fondlar bozorlari qatnashchilari va boshqa foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilishda ko'maklashish uchun moliyaviy hisobotlarda va boshqa moliya hisobotlarida yuqori sifatli, shaffof va taqqoslanadigan axborotlarning yaratilishi va taqdim etilishini talab etadi.***

• ***butun dunyoda standartlarning qabul qilinishi, rioya qilinishi va yagona interpretatsiyasini qo'llab quvvatlaydi.***

• ***butun dunyoda moliyaviy hisobot standartlarini maksimal yaqinligini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqish va joriy qilinishining mas'ul organlari bilan hamkorlik qilish.***

IASC Pravleniyasi 1982 yilda Moliyaviy hisobotlarni tuzuvchi va ulardan foydalanuvchi xalqaro tashkilotlar, fond birjalari, qimmatli qog'ozlar savdosini tartibga soluvchi agentliklar, standartlarni qabul qiluvchi organlar va hukumatlararo tashkilotlar vakillaridan iborat ***Xalqaro Maslahat Guruhiga*** asos soldi. 2002 yilda ushbu Guruh Standartlar bo'yicha Maslahat Kengashiga aylantirildi. Unda 48 ta a'zo faoliyat yuritadi, ular 3 yil muddatga tayinlangan. Maslahat guruhiga a'zo bo'lgan quyidagi tashkilotlarni alohida e'tirof etish mumkin:

- ***Yevropa komissiyasi (kuzatuvchilari)***
- ***Fond birjalari Xalqaro federatsiyasi***

⁷ МСФО в кармане 2015 – Delotte /<https://www2.deloitte.com/content/dam/10-6et>.

- **AQSh Moliyaviy hisob standartlari pravleniyasi**
- **Buxgalteriya hisobi ta'limi va tadqiqotlar Xalqaro Assotsiatsiyasi**
- **Bank ishi xalqaro Assotsiatsiyasi**
- **Xalqaro Savdo Palatasi**
- **Erkin savdo ittifoqi xalqaro konfederatsiyasi**
- **Mehnatning xalqaro konfederatsiyasi**
- **Xalqaro Moliyaviy Korporatsiya**
- **Baholash Standartlari bo'yicha Xalqaro Komissiya**
- **Xalqaro Bank**
- **Iqtisodiy hamjihatlik va taraqqiyot tashkiloti**
- **Transmilliy korporatsiyalar va investitsiyalar bo'yicha BMT bo'limi**

Maslahat Kengashi maxsus loyihalar bo'yicha texnik masalalar, ishchi dasturlarda belgilangan rejalar va ustuvor yo'nalishlar, IASV tomonidan standartlarni qabul qilish ehtimolligi va strategik masalalar bo'yicha maslahat beradi. Bu guruh IASV tomonidan BHXS'larni qabul qilinishida foydalanadigan rasmiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

IASV tomonidan MHXS'larni ishlab chiqish ma'lum bir protsedurada amalga oshiriladi. Bu holat ishlab chiqarilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining sifatini va o'ta mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

1997 yilda IASC Pravleniyasi **Interpritatsiya bo'yicha Doimiy Qo'mitani** tashkil etdi. Bu qo'mitaning asosiy vazifasi qarama-qarshiliklarni yoki hatto ularni hal qilish bo'yicha rasmiy qo'llanmalar yo'qligi tufayli ularni ko'rib chiqishda maqbul bo'lmagan yondashishlarni keltirib chiqaruvchi buxgalteriya hisobi masalalarini o'z vaqtida muhokama qilishdan iborat. 2002 yilda ushbu Qo'mita **Xalqaro Moliyaviy Hisobotlar Interpritatsiyasi bo'yicha Qo'mitaga** aylantirildi (International Financial Reporting Interpretations Committee – IFRIC).

Xalqaro Moliyaviy Hisobotlar Interpritatsiyasi bo'yicha Qo'mitaga 14 ta mamlakatlardan, shu jumladan buxgalter/auditorlik professiyasi, moliyaviy hisobotni tuzuvchi va foydalanuvchi guruhlarning vakillaridan iborat.

Ushbu Qo'mitaga quyidagi funksiyalar yuklatilgan:

- **MHXS (BHXS va MHXS) qo'llanilishini ochiqlash va MHXS'larda ko'rib o'tilmagan hisob masalalariga doir tavsiyanomalarni taqdim etish hamda MHXSK talabi bilan boshqa majburiyatlarni bajarish;**
- **MHXS tomonidan interpritatsiya loyihalari ko'rib chiqilgandan so'ng interpritatsiyalarni yakuniy qabul qilingunga qadar maqbul bo'lgan vaqt oralig'ida jamoatchilik sharhlarini olish uchun ularni ommoviy nashr ettirish;**
- **MHXS'ga hisobot berish va undan interpritatsiyalarning yakuniy loyihasi tasdig'ini olish;**

Yuqoridagi funksiyalarni bajarishda butun dunyoda moliyaviy hisobot standartlarini maksimal yaqinlashtirishni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotning milliy standartlari bilan faol ishlash bo'yicha MHXSKga murojaat etish.

4-mavzu: Mehnatga haq to'lash va ish haqi bo'yicha hisob kitoblar hisobini avtmatlashtirish.

Reja:

1. Xodimlarning hisobiga doir hujjatlar. Xodimning ish haqidan: daromad solig'i, pensiya fondiga ushlanma, ijro varag'i, xodimning arizasi bo'yicha ushlanmalar.
2. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi bo'yicha nafaqa hisoblash tartibi. Mehnat ta'tili.

3. O'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar bilan hisobkitoblar hisobini avtomatlashtirish. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi bo'yicha nafaqa hisoblash tartibi. Mehnat ta'tili.

1. Xodimlarning hisobiga doir hujjatlar. Xodimning ish haqidani: daromad solig'i, pensiya fondiga ushlanma, ijro varag'i, xodimning arizasi bo'yicha ushlanmalar.

Har qanday kishilik jamiyatining rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi. Boshqarish, o'z navbatida, kishilik jamiyatining turli tarmoq va sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xo'jalik faoliyatini olib borayotgan sub'ektlarning mablag'lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarni mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi vosita bo'lib xo'jalik hisobi hisoblanadi.

Xo'jalik hisobi negizida, ko'rinib turibdiki, «xo'jalik» va «hisob» so'zlari yotadi.

«**Xo'jalik**» deganda ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan, o'zining bazisi va ustqurmasiga ega bo'lgan sub'ektlar tushuniladi. Xo'jalik sifatida qaraladigan sub'ektlar bo'lib bir butun mamlakatning o'zi va uning turli tarkibiy bo'linmalari, masalan, tarmoqlari, sohalar, mintaqalari, hududlari, vazirliklar, birlashmalar, korxonalar hisoblanadi. Mamlakat doiraisidagi xo'jalik xalq xo'jaligi, uning eng qo'yi bo'g'inidagi xo'jalik korxona xo'jaligi deb ataladi. Iqtisodiyotning yuqori va qo'yi bo'g'inlari o'rtasidagi xo'jaliklarga tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, viloyatlar, tuman va shaharlar xo'jaliklari kiradi.

«**Hisob**» - bu xo'jalikda yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularning natijalari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimi. Demak, hisobning asosiy mahsuli bo'lib axborot, hisob yuritishning asosiy maqsadi bo'lib, bu axborotlarni aniq, to'liq va o'z vaqtida yig'ish, qayd etish, guruhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish hisoblanadi.

Shunday qilib, ikki so'z yig'indisidan tashkil topgan «**xo'jalik hisobi**» xalq xo'jaligining turli bo'g'inlarida yuz bergan va berayotgan hodisa va jarayonlar, ularni natijalarini soniy va sifat jihatdan xarakterlovchi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash va uzatish tizimidir.

Xo'jalik hisobining boshqaruvda tutgan o'rni va ahamiyati u bajaradigan funksiyalarda yorqin namoyon bo'ladi.

Xo'jalik hisobining asosiy funksiyalari sirasiga axborot berish va nazorat qilish funksiyalari kiradi.

Axborot berish funksiyasi – bu foydalanuvchilarni iqtisodiyotning turli bo'g'inlarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar hamda erishilgan natijalar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash. Aynan xo'jalik hisobi beradigan axborotlar iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarini strategik va taktik boshqarish vositasi, o'tkaziladigan iqtisodiy tahlil va auditning asosiy manbai, nazorat qilish quroli hisoblanadi.

Foydalanuvchilarga beriladigan axborotlar qo'yidagi talablarga javob berishi kerak:

- **reallik** – beriladigan axborotlarni aniqligi va guvohlik beruvchi hujjatlar bilan tasdiqlanganligi;

- **o'z vaqtdalilik** – axborotlarni foydalanuvchilarga kerakli vaqtda yetkazish;

- **batafsillik** - axborotlarni foydalanuvchilarga ularning talablarini qoniqtiradigan mazmunda berish;

- **neytrallik** – axborotlarni foydalanuvchilarga bir-birini huquqlariga putur yetkazmasdan berish.

Nazorat – bu yuz bergan, berayotgan va beradigan xodisa va jarayonlarni qonuniyligi, haqqoniyligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish. Xo'jalik hisobi tomonidan olib boriladigan nazorat asosan uchta turga bo'linadi:

- Dastlabki nazorat;
- Joriy nazorat;
- Keyingi nazorat.


Dastlabki nazorat – xo‘jalikda yuz bergan va berayotgan xodisa va operatsiyalarni qonuniyligi, ular bo‘yicha tayyorlangan boshlang‘ich hujjatlarni to‘g‘riligini ularni imzolash chog‘ida tekshirish.

Joriy nazorat – yuz bergan jarayon va operatsiyalarni ular bo‘yicha tuzilgan hisobotlarni qabul qilish chog‘ida tekshirish.

Keyingi nazorat – xo‘jalikda yuz bergan jarayon va operatsiyalarni, mablag‘lar holatini inventarizatsiya qilish, taftish o‘tkazish, taqqoslama dalolatnomalarni tuzish yo‘llari bilan tekshirish.

Axborot berish va nazorat qilish vositasi hisoblangan xo‘jalik hisobini turli belgilari bo‘yicha tasniflash, turlarga ajratish va tavsiflash mumkin. Ushbu tasnifiy belgilar xo‘jalik hisobi turlarini, ularning bir-biridan farqli, shuningdek o‘xshash jihatlarini ifoda etadi.

Maqsadi va yuklatilgan vazifalariga ko‘ra makon va zamonda yuritiladigan xo‘jalik hisobi asosan uchta turga bo‘linadi (1- rasmga qarang).



1-rasm. Xo‘jalik hisobining turlari

Operativ (operativ-texnik) hisob deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda operativ nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida yuritiladigan tezkor hisob tushuniladi. Ushbu hisob turining xarakterli jihatlariga uni asosan qisqa muddatlarda (daqiqalar, soatlar, kunlar, haftalar, dekadalar kesimida) yuritilishi, shakllanadigan va taqdim etiladigan axborotlarning to‘liq hujjatli asosga ega bo‘lishining shart emasligi, ularni qog‘ozli va qog‘ozsiz, og‘zaki yoki telefon aloqasi orqali foydalanuvchilarga yetkazilishi, taqdim etilgan ma‘lumotlarning taxminiyliги kabilar kiradi.


Buxgalteriya hisobi - bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati, faoliyat natijalari, ularning mablag‘lari (mulki, aktivlari), mablag‘larni tashkil topish manbalari to‘g‘risidagi axborotlarni asosan pul o‘lchov birligida qat’iy hujjatli asosda yig‘ish, qayd etish, guruhlash, jamlash hamda ularni ichki va tashqi foydalanuvchilar hukmiga tegishli shakl va mazmunda taqdim etish tizimidir. Ushbu hisob turining xarakterli jihatlariga uni asosan hisobot davrlari kesimida (oy, chorak, yarim yil, to‘qqiz oy, yil) yuritilishi, shakllanadigan va taqdim etiladigan axborotlarning to‘liq hujjatli asosga ega bo‘lishi, ularni moliyaviy hisobotning tegishli tasdiqlangan shakllari ko‘rinishida foydalanuvchilarga yetkazilishi, taqdim etilgan ma‘lumotlarning realligiga qonun oldida javobgarlikning mavjudligi kabilar kiradi.

Statistika hisobi deganda jamiyatda yuz bergan va berayotgan yoppa hodisa va jarayonlarni soniy aks ettiradigan va sifat jihatdan tavsiflaydigan hisob tizimi tushuniladi. Statistika hisobining asosiy mahsuli bo‘lib statistik hisobotlar hisoblanadi. Statistik hisobotlar qat’iy buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari asosida tuziladi va ular buxgalteriya hisoboti ma‘lumotlari bilan qat’iy uyg‘un bo‘lishi shart. Statistik hisobotlar realligi uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari va bosh buxgalterlari qonun oldida javobgar hisoblanadilar. Statistik hisob ma‘lumotlarni tuman, viloyat va yaxlit mamlakat doirasida jamlaydi. Statistik hisob davlat tomonidan strategik boshqaruvni olib borishda asosiy axborot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Xo‘jalik hisobining alohida turlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha ular bir-birini to‘ldiradi. Iqtisodiyotning quyi va yuqori bo‘g‘inlarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar to‘g‘risida

axborot berish va ularni nazorat qilish vositalari hisoblangan operativ (operativ-texnik) hisob), buxgalteriya hisobi va statistika hisobi bajaridagan funksiyalari va vazifalari bo'yicha bir-biri bilan mushtarakdir. Aynan maqsad va yuklatilgan vazifalar mushtarakligi sababli xo'jalik hisobi turlari birgalikda yaxlit xalq xo'jaligi hisobi tizimini tashkil etadi.

Shu bilan birga xo'jalik hisobi turlari bir-biridan turli jihatlari bo'yicha farqlanadi. Chunonchi, *kimga mo'ljallanganligi va axborot foydalanuvchilari guruhlariga ko'ra* xo'jalik hisobining yuqorida sanab o'tilgan turlari ichki va tashqi hisobga ajratiladi (2-rasm).



2-rasm. Xo'jalik hisobining turlarining kimga mo'ljallanganligi va axborot foydalanuvchilari guruhlariga ko'ra tasnifi va tarkibi

Ichki hisob deganda faqat xo'jalikning o'zida uning ichki maqsadlarida yuritiladigan hisob tushuniladi. Ichki hisobga operativ (operativ-texnik) hisob, shuningdek buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan buxgalteriya boshqaruv hisobi kiradi.

Buxgalteriya boshqaruv hisobi - bu buxgalteriya hisobining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati, faoliyat natijalari, mablag'lari (mulki, aktivlari), mablag'larni tashkil topish manbalari to'g'risidagi turli o'lchov birliklaridagi batafsil axborotlarni ichki boshqaruv segmentlari, ya'ni ob'ektlar, sub'ektlar va javobgarlik markazlari kesimida yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash hamda ularni ichki boshqaruv organlari hukmiga tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun maqbul shakl va mazmunda taqdim etishga mo'ljallangan tarkibiy qismi.


Buxgalteriya boshqaruv hisobining muhim tarkibiy qismi bo'lib ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi - bu buxgalteriya boshqaruv hisobining xo'jalikni ishlab chiqarish jarayonlari va ularning natijalarini u yoki bu usullarda aks ettiruvchi hisob tizimidir.

Tashqi hisob deganda xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tashqi axborot foydalanuvchilarga taqdim etuvchi hisob tizimi tushuniladi. Tashqi hisobga statistika hisobi va buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan buxgalteriya moliyaviy hisobi kiradi.

Buxgalteriya moliyaviy hisobi - bu buxgalteriya hisobining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy va mulkiy holati to'g'risidagi moliyaviy xarakterdagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash hamda ularni asosan tashqi foydalanuvchilar hukmiga moliyaviy hisobot ko'rinishida taqdim etishga mo'ljallangan tarkibiy qismi.


Xo'jalik hisobining ichki va tashqi hisobga ajratilishi ular axborotlaridan foydalanuvchilarning aniq guruhlarini shakllanishiga olib keldi. Bunday foydalanuvchilar sirasiga quyidagilar kiradi (3-rasmga qarang).





3-rasm. Xo‘jalik hisobi turlari axborotlaridan foydalanuvchilar

Davlat tomonidan tartibga solinishiga (reglamentlashtirilishiga) ko‘ra xo‘jalik hisobi turlari quyidagi ikkita guruhga ajratiladi (4-rasm).




4-rasm. Xo‘jalik hisobining turlarining davlat tomonidan tartibga solinishiga (reglamentlashtirilishiga) ko‘ra ko‘ra tasnifi va tarkibi

Reglamentlashtirilmaydigan hisob deganda shakl va mazmuni, yuritish tartibi va texnikasi davlat tomonidan qat’iy belgilab qo‘yilmagan hisob tushuniladi. Bunday hisob turlariga operativ (operativ-texnik) hisob, buxgalteriya boshqaruv hisobi kiradi. Ushbu hisob turlarida qo‘llaniladigan registrarlar, ularning shakllari, yuritish tartibi har bir xo‘jalik tomonidan o‘z hohishiga qarab belgilanadi.

Reglamentlashtiriladigan hisob deganda shakli va mazmuni, yuritish texnikasi va tartibi qonunlar va qonunosti me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan hisob tushuniladi. Reglamentlashtiriladigan hisobga O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya moliyaviy hisobi va statistika hisobi kiradi. Ushbu hisob turlari shakl va mazmun jihatdan barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun bir xildir.

Xo‘jalik hisobi turlari ularni yurituvchi bo‘linmalariga qarab ham farqlanadi (5-rasmga qarang).





Shunday qilib, yuqoridagi tasnif va tavsiflar asosida xo‘jalik hisobi turlarini bir-biridan farqlovchi eng muhim jihatlari quyidagicha umumlashtirish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Xo‘jalik hisobi turlarining farqli jihatlari

Hisob turlarini bir-biridan farqlovchi belgilar	Operativ (operativ-texnik) hisob	Statistika hisobi	Buxgalteriya hisobi
Kimga uchun mo‘ljallanganligiga ko‘ra	Ichki axborot foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan	Tashqi axborot foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan	Ichki va tashqi axborot foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan
Axborot foydalanuvchilar guruhlariga ko‘ra	Korxona rahbari, bo‘lim boshliqlari, menejerlar va boshqa xodimlar	Davlat statistika organi	Davlat soliq organi, banklar, tashqi va ichki investorlar, huquqni himoya qiluvchi organlar, kreditorlar, korxona rahbariyati, bo‘limlar boshliqlari va xodimlari
Yuritish bo‘limlariga ko‘ra	Kadrlar, ishlab chiqarish, ta‘minot, marketing, reja-iqtisod va boshqa bo‘limlar	Reja-iqtisod bo‘limi yoki buxgalteriya	Buxgalteriya
Tarkibiy qismlariga bo‘linishiga ko‘ra	Qismlarga bo‘linmaydi	Qismlarga bo‘linmaydi	Buxgalteriya moliyaviy hisobi va buxgalteriya boshqaruv hisobiga bo‘linadi
Davlat tomonidan tartibga solinishi (reglamentlashtirishi)ga ko‘ra	Shakl va mazmuni davlat tomonidan belgilanmaydi (reglamentlashtirilmaydi)	Shakl va mazmuni davlat tomonidan belgilanadi (reglamentlashtiriladi)	Moliyaviy hisobni yuritish, buxgalteriya hisoboti shakllari va mazmuni, ularni tuzish va taqdim etish tartiblari davlat tomonidan belgilanadi (reglamentlashtiriladi)

Yaxlit xalq xo'jaligi hisobi tizimini tashkil qiluvchi hisob turlari turli boshqa belgilari bo'yicha ham farqlanadi va tasniflanadi. Chunonchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyalashtirilishiga ko'ra ularda yuritiladigan buxgalteriya hisobi korxonalar buxgalteriya hisobi va budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobiga ajratiladi.

Korxonalar buxgalteriya hisobi deganda o'zini o'zi to'liq mablag' bilan ta'minlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan xo'jaliklarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi tushuniladi. Bunday hisobga zavod va fabrikalar, firmalar, shirkatlar, jamoa xo'jaliklari, qurilish tashkilotlari, banklar va boshqa korxonalarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi misol bo'ladi.

Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi deganda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan muassasalarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi tushuniladi. Bunday hisobga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobi misol bo'ladi.

Iqtisodiyot sohalarigi ko'ra buxgalteriya hisobi alohida shu sohalar hisobidan iborat bo'ladi, masalan, sanoatda buxgalteriya hisobi, qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va boshqalar. Ushbu tarmoqlar va sohalar xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda yuritiladigan buxgalteriya hisobi bir-biridan uning ob'ektlari mazmun-mohiyati bo'yicha farqlanadi.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va milliy standartlarda ko'zda tutilgan prinsiplar asosida tashkil qilinadi. Kompaniya tannarx buxgalteriya hisobi, personal, ta'minot va qurilish jarayoni, bajarilgan ishlarni buyurtmachiga topshirish departamentlari bilan staf muloqotida bo'ladi. Boshqa chiziqli va staf departamentlar buxgalteriya hisobi protsedurasi va siyosatiga muvofiq hisobot beradilar. Masalan, *personal departamenti* ishchi va xodimlar, ularning ish soatlari va ish haqlarining hisobini yuritadi va buxgalteriya hisobi departamentiga hisobot berib turadi. Personal departamenti xodimlar bilan bog'liq barcha ishlarga mas'ul bo'lim hisoblanadi. Bizning amaliyotimizda ish haqini buxgalterlar hisoblaydilar. Chet el kompaniyalari amaliyotida esa personal bilan bog'liq barcha jarayonlarni, shu jumladan, ish haqini hisoblashni mutaxassislashgan personal departamenti bajaradi. Bu esa uning nufuzini yanada oshiradi.

1. Tashkilotning eng umumiy va maxsus maqsadlarini belgilash;
2. Maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqish (budjetlar);
3. Harakat (amalga oshirish);
4. Bajarilishlarni baholash.

Tashkilotning umumiy va maxsus maqsadlari menejerlar tomonidan belgilangandan so'ng, maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqiladi.

Biznes rejalarini u yoki bu turdagi tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish (bajarish, ko'rsatish) uchun talab etiladigan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojlar, ishlab chiqarish, sotish va kutilayotgan moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi budjet loyihalarini o'z ichiga oladi. Ushbu loyihalar tuzilayotganida

buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalaniladi va buxgalter-menejerlar ishtiroki talab qilinadi. Lekin, moliyaviy axborotlarni mujassamlantiruvchi ko'pgina loyihalar, jumladan, pul oqimlari budjeti, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot loyihasi, buxgalteriya balans loyihalari bevosita buxgalterlar tomonidan tuziladi.

Demak, biznes faoliyati rejalashtirilayotganda buxgalterlarning uch ko'rinishdagi ishtirokini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir: 1) biznes rejalarini tuzishda buxgalteriya axborotlari ta'min etiladi; 2) buxgalter-menejerlar biznes-rejalarini ishlab chiqishda boshqa menejerlar qatori ishtirok etadi; 3) ayrim moliyaviy axborotlarga taalluqli loyihalar bevosita buxgalterlar tomonidan tayyorlanadi.

Mukammal rejalar ishlab chiqilgandan so‘ng, faoliyatga jalb qilingan mablag‘larning harakati amalga oshiriladi. Rejadagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish) uchun moddiy, moliyaviy va mehnat sarflari yuz beradi va natijada ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy natijalar shakllana boradi. Harakat jarayonining yuz berishi erishilgan bajarilishlarni o‘lchash va baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Haqiqatdagi harakat (amalga oshirish) va bajarilishlarni baholash natijalari boshqaruv (menejmentlik) hamda moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti uchun ob‘ekt sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, buxgalteriya hisobi schotlari va registrlarida qaydetiladi, bajarilishlar hisoboti tuziladi va menejerlarga taqdim etiladi. Menejerlar haqiqatda erishilgan natijalarning budjetlarga muvofiqligini nazorat qilib boradi. Agarda jiddiy farq vujudga kelsa, budjetlarga o‘zgartirishlar kiritish masalasi o‘rtaga qo‘yiladi va bu o‘zgartirishlar menejerlar tomonidan qabul qilinsa, keyingi nazorat faoliyatida ushbu o‘zgartirishlar asosidagi budjet loyihalaridan foydalaniladi. Harakatlar (amalga oshirish) va bajarilishni baholash jarayonidagi hisobga olingan ma‘lumotlarni menejerlarga yetkazilishi **“qaytarma bog‘liqlik” (fedback)** ni yuzaga keltiradi.

Kompaniyalarda yuqorida ta’kidlaganimizdek xalqaro talablarga javob beradigan menejment tizimi yuzaga kelgan taqdirdagina MHXSlarini qo‘llash yetarli natija va samara berish.

5-mavzu. Uzoq muddatli aktivlar hisobini avtomatlashtirish

Reja:

1. Asosiy vo sitalar va NMAIarni sotib olish hisobi.
2. Asosiy vo sitalar v a nom oddiy ak tiv larn in g eskirishi. Asosiy v o sitalarn in g modernizatsiyasi.
3. Asosiy vositalar va nomoddiy aktiv larni hisobdan chiqarilishi.

1. Asosiy vo sitalar va NMAIarni sotib olish hisobi

Buxgalteriya hisob» maxsus fan sifatida o‘zining predmetiga ega. Ushbu fanning **predmeti** deganda u tomonidan o‘rganiladigan ob‘ektlar majmuasi tushuniladi.

«Buxgalteriya hisob» fani predmetini tashkil qiluvchi ob‘ektlar bo‘lib umuman olganda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati va uning natijalari, shuningdek xo‘jalik mablag‘lari va ushbu mablag‘larning tashkil topish manbalari hisoblanadi (6-rasmga qarang)



6-rasm. “Buxgalteriya hisobi” fani predmetini tashkil qiluvchi ob‘ektlar

«Buxgalteriya hisobi» fani buxgalteriya hisobi predmetini tashkil qiluvchi yuqorida sanab berilgan ob‘ektlar mohiyati, ularning tasnifiy, tavsifi va boshqa jihatlari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni o‘rgatadi. Iqtisodiyotning alohida olingan tarmoq va sohalarida buxgalteriya hisobining predmetini tashkil qiluvchi ob‘ektlarning xususiyatlari mos ravishdagi tarmoq va sohalarida buxgalteriya hisobi fanida ochib beriladi.

Xo‘jalik faoliyati deganda, umuman olganda, korxona va tashkilotlar tomonidan foyda olish maqsadida olib borilayotgan hamda mazmungan alohida nomlardagi faoliyat turlarini tashkil qiluvchi xo‘jalik jarayonlari va operatsiyalari (muomalalari) majmuasi tushuniladi.

Хо‘jalik jarayoni deganda korxonada yuz bergan va berayotgan ma’lum muomalalar yig‘indisi tushuniladi.

Хо‘jalik operatsiyasi (muomalasi) deganda korxonada yuz bergan va berayotgan aniq xarakatlar, ishlar tushuniladi.

Iqtisodiyotni tobora erkinlashtirilishi korxonalarga turli faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga, ularning har birini foyda olish manbaiga aylanishiga olib keldi.

Respublikamizning qonunlari, chunonchi Soliq Kodeksiga muvofiq korxonalarning xo‘jalik faoliyati ikki turga bo‘linadi:

1. Asosiy faoliyat – bu korxonaning bosh maqsadini ifodalovchi hamda uning ustavida ko‘rsatilgan faoliyat turi (yoki turlari).

2. Asosiy bo‘lmagan faoliyat – bu korxonaning bosh maqsadi bo‘lib hisoblanmaydigan, shu bilan birga qo‘shimcha foyda olish maqsadida hamda asosiy faoliyat uchun zarurat yuzasidan yuritiladigan faoliyat turi yoki turlari (quyidagi rasmga qarang).



Xar qanday korxonaning asosiy faoliyati o‘z ichiga *ta’minot, ishlab chiqarish* va *sotish jarayonlarini* oladi (quyidagi rasmgaqarang).



**Korxonalar asosiy faoliyatini tashkil qiluvchi
xo‘jalik jarayonlari**

Ta’minot jarayoni deganda korxonani faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan mehnat predmetlari va vositalari, ishchi kuchi, pul va boshqa mablag‘lar bilan ta’minotlash tushuniladi.

Ushbu jarayonsiz faoliyatning keyingi jarayonlari, ya'ni ishlab chiqarish va sotish jarayonlari amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun korxona ning doimiy faoliyat ko'rsatishi aynan ta'minot jarayonining uzliksizligiga bevosita bog'liqdir.

Ishlab chiqarish jarayoni deganda ishchi kuchi va mehnat vositalari yordamida mehnat predmetlaridan yangi mahsulotlar yaratish tushuniladi. Ushbu jarayon o'z ichiga turli texnologik operatsiyalarni oladi, bu operatsiyalarni bajarish esa turli xarajatlarni amalga oshirishni ta'qoza etadi. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi bo'lib tayyor mahsulot hisoblanadi. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlar, mehnatga xaq to'lash xarajatlari, ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiya xarajatlari va boshqa ushbu jarayonga tegishli xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarini, yaratilgan mahsulot qiymatiga kiritilgan xarajatlar esa tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki korxona tomonidan bajarilgan ishlar, masalan qurilish-montaj ishlari, ko'rsatilgan xizmatlar, masalan turistlarga ko'rsatilgan yotoqxon va boshqa xizmatlar yoki auditorlik xizmati xam ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Bunday ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lib bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat xajmi hisoblanadi, ularga sarflangan xarajatlar bajarilgan ish yoki xizmatning tannarxini tashkil qiladi.

Sotish jarayoni deganda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni xaridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda tayyor mahsulot, ish, xizmat pulga aylanadi, sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzarlar vujudga keladi. Sotish jarayonida korxonaning yalpi tushumi, sotish tannarxi, sotishdan olingan foyda yoki zarari, sotish jarayonining xarajatlari, unga doir soliqlar va boshqa ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobining birinchi guruh ob'ekti bo'lib hisoblangan xo'jalik faoliyati faqatgina uni tashkil etuvchi jarayonlarni doimiy va uzliksiz ravishda amalga oshirib borgan holda mavjud bo'ladi. Bu jarayonlarni bir birisiz tasavvur etib bo'lmadi, chunonchi ta'minotsiz ishlab chiqarish, ishlab chiqarishsiz esa sotish jarayoni amalga oshmaydi. Sotish bo'lmasa korxonaga pul kelib tushmaydi, pulsiz esa ta'minot, ishlab chiqarish jarayonlarini yangidan takrorlab va rivojlantirib bo'lmaydi. Bundan xulosa qilsa bo'ladiki, xo'jalik faoliyati mablag'larni usliksiz aylanishidan va ko'payib borishidan iboratdir. Buyuk iqtisodchi Karl Marks xo'jalik faoliyati jarayonlarini kapitalning aylanishi deb e'tirof etib, uni o'zining «Kapital» asarida quyidagicha ifodalagan edi.



Bu yerda: **P**-pul, **MP**-mehnat predmetlari, **MV**-mehnat vositalari, **TM**-tayyor mahsulot, **T**-tovar, **P¹** - sotishdan olingan pul.

Asosiy faoliyatni tashkil qiluvchi barcha xo'jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining muhim ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Har bir jarayonda yuz bergan operatsiyalar buxgalteriya hisobida o'zining soniy o'lchovini va sifat tavsifini topadi. Buxgalteriya hisobi ta'minot jarayonida mehnat predmetlari va vositalarini qancha miqdorda, qaysi baholarda, qaysi ta'minotchilardan sotib olininganligi, shuningdek ular bo'yicha ta'minotchilar bilan hisob-kitoblarning holati to'g'risida batafsil axborot beradi. Ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha buxgalteriya hisobida qanday mahsulotlar ishlab chiqarilganligi, qancha ishlab chiqarilganligi, buning uchun qancha xarajat qilinganligi, omborlarga qabul qilingan tayyor mahsulotning qiymati (tannarxi) va boshqa ma'lumotlar shakllanadi. Sotish jarayoni bo'yicha buxgalteriya hisobi qancha mahsulot sotilganligi, kimlarga sotilganligi, qanday to'lov turlari bo'yicha sotilganligi, qanday baholarda sotilganligi, xaridorlar bilan hisob-kitoblarning holati, sotishdan olingan tushum, sotishga doir xarajatlar, sotishdan olingan foyda, undan to'lanadigan soliqlar va boshqalar to'g'risida atroflicha axborot beradi.

ASOSIY BO'LMAGAN FAOLIYAT – bu korxonaning kunlik odatiy bo'lmagan faoliyati yoki faoliyat turlari. Ularga quyidagilar kiradi:

*investitsiya faoliyati;

*moliyaviy faoliyat.

INVESTITSIIYa FAOLIIYaTI – korxonaning o‘z mablag‘larini uzining moddiy texnika bazasini yaxshilashga, shuningdek o‘zga korxonalarga yordam berish va qo‘shimcha daromad olish maqsadida kiritish bilan bog‘liq faoliyati.

Investitsiya faoliyatining turlari:

KAPITAL (REAL) INVESTITSIIYa FAOLIIYaTI	MOLIIYaVIY INVESTITSIIYa FAOLIIYaTI
Korxonaning o‘z mablag‘larini o‘zining moddiy texnika bazasini yaxshilashga,	korxonaning o‘z mablag‘larini o‘zga korxonalarga yordam berish va qo‘shimcha daromad olish maqsadida kiritish

KAPITAL (REAL) INVESTITSIIYa FAOLIIYaTINI TASHKIL QILUVChI XO‘JALIK OPERATSIYalARI
1.Kapital qurilish 2. Asosiy vositalarni sotib olish 3. Nomoddiy aktivlarni sotib olish 4. Asosiy podani shakllantirish 5.Yerni obodonlashtirishga kapital quyilmalar 6. Moliyaviy lizing shartnomasi bo‘yicha asosiy vositalarga kapital quyilmalar 7. Boshqa kapital quyilmalar – rekonstruksiya, modernizatsiya, kengaytirish

MOLIIYaVIY INVESTITSIIYa FAOLIIYaTINI TASHKIL QILUVChI XO‘JALIK OPERATSIYalARI
1.Banklar va boshqa aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini sotib olish 2.Davlatning va korxonalarning obligatsiyalarini sotib olish 3.Boshqa korxonalarga mablag‘larni ta’sis badali sifatida kiritish 4.Boshqa korxonalarga mablag‘larni kredit sifatida berish 5. Pul mablag‘larini banklarga va kredit uyushmalariga depozitga qo‘yish

Investitsiya faoliyatining muhim turi bo‘lib innovatsiya faoliyati hisoblanadi.

INNOVATSIYa FAOLIIYaTI – bu korxonaning uni moddiy-texnika bazasini yangilash, mahsulot (ish, xizmat) turlari va sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni kiritish va joriy qilish bilan bog‘liq faoliyati.

MOLIIYaVIY FAOLIIYaT – o‘zga korxonalar (bank va boshqalar) mablag‘larini korxonaga kredit va qarz sifatida kiritish hamda jalb qilish bilan bog‘liq faoliyat.

MOLIIYaVIY FAOLIIYaTINI TASHKIL QILUVChI XO‘JALIK OPERATSIYalARI
1.Qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqalar) chiqarish va sotish 2. Kreditlarni olish 3.Qarz olish 4. Chiqarilgan va sotilgan qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya va boshqalar) qaytarib olish va bekor qilish 5. Olingan kreditlar va qarzlarni qaytarish 6. Dividend va foizlarni hisoblash 7. Hisoblangan dividend va foiz to‘lovini berish

Moliyaviy faoliyatning asosiy turi bo‘lib emissiya faoliyati hisoblanadi.

EMISSIYa FAOLIYATI – qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar) chiqarish yo‘li bilan boshqa korxonalar va shaxslar mablag‘larini jalb etish.

XO‘JALIK FAOLIYATINING NATIJALARI

Korxona va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyatining natijalari bo‘lib ular olgan foyda yoki ko‘rgan zararlari hisoblanadi.

Foyda(F) – bu korxonaning daromadlari (D) va xarajatlari(X) o‘rtasidagi ijobiy farq, ya’ni

$$F = D > X.$$

Demak, qanchalik daromad ko‘p bo‘lib, xarajat kam bo‘lsa, korxonaning foydasi shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Zarar – bu korxonaning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi salbiy farq, boshqachasiga xarajatlarni daromaddan ko‘p bo‘lishi, ya’ni:

$$Z = D < X$$

Demak, korxona daromadga qanchalik ko‘p xarajat bilan erishsa, uning zarari shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Korxonaning faoliyat natijalari ko‘rsatkichlari buxgalteriya hisobining eng ma’suliyatli bo‘limi, chunki ushbu ko‘rsatkichlarning miqdori ularni hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligiga va jamlanganligiga, hisobotlarni to‘g‘ri tuzilganligiga bevosita bog‘liq.

O‘z faoliyatini yuritish uchun har qanday korxona xo‘jalik aktivlariga ega bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda 475 –tartib raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan «Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun konseptual asos»ga muvofiq (39- modda) **aktivlar** deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning baholash qiymatiga ega bo‘lgan va o‘z ichiga pul mablag‘lari va debitorlik qarzlarni olgan moddiy, shuningdek nomoddiy mulki tushuniladi.

Aktiv deb tan olish uchun moddiy va nomoddiy mulk quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Qiymatga ega bo‘lishi va bu qiymat baholanadigan bo‘lishi kerak.
- Egalik qilish huquqiga asosan qaysi korxona balansiga kiritilgan bo‘lsa, shu korxona tomonidan nazorat qilinishi lozim.
- Kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltirishi kerak, jumladan korxonaning pul mablag‘larini kirimini ko‘payishiga bevosita va bilvosita hissa qo‘shishi kerak.
- Yuz bergan xo‘jalik operatsiyalari natijasi hisoblanishi kerak, masalan tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonining natijasidir.

Aktivlarning xarakterli xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

• Jismoniy ko‘rinishga (shaklga) ega bo‘lishi ham, ega bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, bino yoki stanok aniq shaklga ega, lekin patent, litsenziya, savdo belgisi, mualliflik huquqi moddiy shaklga ega emas.

- Sotib olingan, bepul kelib tushgan, ishlab chiqarilgan bo‘lishi mumkin.
- Korxonada yuz berayotgan jarayonlarda moddiy asos yoki ularning natijasi hisoblanishi mumkin. Masalan, xom-ashyo ishlab chiqarishga moddiy asos, tayyor mahsulot esa ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi.
- Boshqa aktivlarga almashtirilishi mumkin.
- Qarzlarni to‘lash uchun ishlatilishi mumkin.
- Qisqa yoki uzoq vaqt maboynda foydalanishda bo‘lishligi mumkin.
- Oborotda va oborotdan tashqarida bo‘lishligi mumkin.

Korxonalarning yuqorida keltirilgan talab va xususiyatlarga javob beradigan asosiy aktivlariga quyidagilar kiradi:

1.Uzoq muddatli aktivlar – 1 yildan ko‘p muddatda xizmat qiladigan va oborotda bo‘ladigan moddiy va nomoddiy mablag‘lari:	
Asosiy vositalar	binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, kompyuter texnikasi, mebel va boshqalar.
Nomoddiy aktivlar	litsensiya, patent, savdo markasi, tovar belgisi, gudvil, mualliflik huquqi va boshqalar.
Moliyaviy investitsiyalar	sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, berilgan kredit va qarzlar, kiritilgan pay va badallar.
Kapital investitsiyalar	tugallanmagan qurilishlarga, xarakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga sarflangan, shuningdek yangi uzoq muddatli aktivlarni sotib olishga kiritilgan mablag‘lar, sotib olingan, lekin o‘rnatilmagan jihozlar.
2.Qisqa muddatli aktivlar – 1 yilgacha muddatda xizmat qiladigan va oborotda bo‘ladigan mablag‘lar:	
Ishlab chiqarish zaxiralari	xom-ashyo va materiallar, yoqilg‘i, tara va tara materiallari, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari, xo‘jalik inventarlari, boquvdagi va o‘stirishdagi yosh mollar.
Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari	tayyor holga yetmagan mahsulotlarga to‘g‘ri keladigan xarajatlar, yarim mahsulotlar.
Tayyor mahsulotlar	omborlarga qabul qilingan tayyor buyumlar.
Tovarlar	magazin va omborlarda saqlanayotgan sotish uchun sotib olingan buyumlari.
Kelgusi davr xarajatlari	xisobot yilida kelgusi davrlar uchun qilingan xarajatlar, masalan obuna to‘lovlari, ijara to‘lovlari.
Muddati uzaytirilgan xarajatlar	hisobot yilida kelgusi davrda hisobiga to‘langan soliqlar va boshqa xarajatlar.
Pul mablag‘lari	kassadagi, yo‘ldagi va banklardagi milliy va chet el valyutalari.
Pul ekvivalentlari	pulli cheklar, yo‘llanmalar, chiptalar, talonlar, markalar va boshqalar.
Olinadigan schotlar	boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning korxona oldidagi debitorlik qarzlar.

Barcha xo‘jalik aktivlar korxonada yuritiladigan buxgalteriya hisobining muhim ob‘ektlari hisoblanadi, ular har birining holati, ko‘payishi va kamayishi buxgalteriya hisobida xujjatli asosda aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari asosida korxona aktivlari boshqariladi, tahlil etiladi va nazorat qilinadi.

Korxona ixtiyoridagi barcha aktivlar ikki manbadan tashkil topadi:

- **Xususiy kapital**
- **Majburiyatlar**

Mulkga egalik qilish huquqiga muvofiq aktivlar va ularning manbalari quyidagi tenglik ko‘rinishida ifodalanadi:

AKTIV	=	XUSUSIY KAPITAL	+	MAJBURIYATLAR
A	=	XK	+	M

Xususiy kapital – bu korxonaning majburiyatlarini chegirib tashlagandan so‘ng qoladigan aktivlaridir. Yuqoridagi tenglikga muvofiq:

XUSUSIY KAPITAL	=	AKTIV	-	MAJBURIYATLAR
------------------------	---	--------------	---	----------------------

XK	=	A	-	M
-----------	----------	----------	----------	----------

Korxonalarining xususiy kapitalini shakllanishining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

XUSUSIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISH MANBALARI	
Ustav kapitali (UK)	bu korxonaga uning ta'sischilari tomonidan kiritilgan mablag'lar majmuasi.
Qo'shilgan kapital (QK)	bu aksiyalarni sotish va nominal qiymatlari o'rtasidagi ijobiy farq, shuningdek chet el investorlarini ustav kapitaliga kiritgan mablag'lari bo'yicha vujudga kelgan valyutalar o'rtasidagi ijobiy farqlar summasi.
Rezerv kapitali (RK)	bu korxonaning sof foydasidan tashkil etilgan rezerv kapitali, mulkni qayta baholashdan olingan qo'shimcha qiymat va bepul kelib tushgan mulklar qiymatining majmuasi.
Taqsimlanmagan foyda (TF)	bu korxonaning ta'sischilari o'rtasida taqsimlanmay qolgan sof foydasining summasi.
Rezervlar(R)	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar uchun oldindan hosil qilingan rezervlar, masalan kapital ta'mirlash, mehnat ta'tilini hisoblash uchun rezervlar.
Maqsadli tushumlar (MT)	korxonaga turli maqsadlarda turli manbalardan kelib tushgan mablag'lar majmuasi (grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, soliqlar bo'yicha imtiyozlar va boshqalar). • Grantlar -- bu korxonaga qaytarib olinmaslik sharti bilan davlat, nodavlat, xalqaro tashkilot va fondlardan aniq maqsadlar uchun kelib tushgan moddiy va nomoddiy mablag'lar majmuasi. • Subsidiyalar – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maqsadida ma'lum bir shartlarga ko'ra davlat tomonidan berilgan yordam va imtiyozlar summasi.

Xususiy kapitalning umumiy miqdori yuqoridagi uning elementlari summalarining yig'indisidan iborat bo'ladi, ya'ni:

$$XK = UK + QK + RK + TF + R + MT$$

Aksionerlik jamiyatlarida chiqarilgan o'z aksiyalari boshqalardan qayta sotib olingan bo'lsa, u holda xususiy kapital summasini topishda sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati (Xaq) xususiy kapital miqdoridan chegirib tashlanadi, ya'ni:

$$XK = UK + QK + RK + TF + R + MT - Xaq$$


Majburiyatlar – bu korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlari. Korxonalar majburiyatlarining asosiy turlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

KORXONALAR MAJBURIYATLARINING ASOSIY TURLARI	
Olingan uzoq va qisqa muddatli qarzlari	bu mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha muddatga boshqa yuridik shaxslardan vaqtinchalik moliyaviy yordam sifatida olingan mablag'larni qaytarish bo'yicha qarzlari summasi.
Olingan uzoq va qisqa muddatli kreditlar	bu mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha muddatga banklardan kredit shartnomalari asosida olingan kredit resurslarini qaytarish bo'yicha qarzlari summasi.
Ta'minotchilarga to'lanadigan schetlar	bu olingan tovar-moddiy boyliklar uchun ta'minotchilarga o'tkazilmay qolingani qarzi summasi.
Xaridorlardan olingan bo'naklar	bu xaridorlardan tovar-moddiy boyliklarni sotib olish uchun oldindan kelib tushgan pullar bo'yicha qarzi summasi.

Muddati kechiktirilgan uzoq va qisqa muddatli qarzlari	bu soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha muddati mos ravishda 1 yildan ko'p va 1 yilgacha bo'lgan davrga uzaytirilgan qarz summasi.
Budjet oldidagi qarzlari	bu hisobot davrida hisoblangan, lekin budjetga o'tqazib berilmagan soliq va to'lovlar bo'yicha qarz summasi.
Budjetdan tashqari maqsadli fondlar olidagi qarzlari	bu budjetdan tashqari maqsadli fondlarga hisobot davrida hisoblangan, lekin ushbu fondlarga o'tkazib berilmagan qarz summasi.
Ish xaqi bo'yicha qarzlari	bu korxonaning xodimlariga hisoblangan va vaqtincha saqlanayotgan ish haqlarini to'lanmay qolgan qismi.
o'zlarining distribyutorlariga (chakana savdo korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlarga), shuningdek boshqa tovarlarni o'z xo'jalik maqsadlarida foydalanuvchi tashkilot va muassasalarga tuzilgan shartnomalar asosida kelishuv baholarida yirik va mayda partiyalar bilan naqd pulsiz hisobkitoblar asosida sotadilar. Tovarlarni ulgurji sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlar tannarxini hisobga olish uchun 21-son BHMSda 9020 <<Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar>> va 9120 <<Sotilgan tovarlarning tannarxi>> schotlar ko'zdatutilgan. Ushbu schotlar orqali tovarlarni sotilishidan olingan daromadlar va sotilgan tovarlar tannarxini hisobga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Xaridorlcirdan kelib tushgan oldindan to 'lov summasiga:

Debet 5110 <<Hisob-kitob schoti>>;

Kredit 6310 <<Xaridorvabuyurtmachilardan olingan bo'naklar>>.

2. Xaridorlarga sotilgan tovarlarning sotish bahosidagi qiymatiga:

Debet 4010 <<Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar>>;

4110 <<Alohida bo'linmalardan olinadigan schotlar>>.

4120 <<Sho'ba va qaram xo'jaliklardan olinadigan schotlar>>;

Kredit 9020 <<Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar>>;

3. Sotilgan tovarlarning tannarxiga:

a) tovarlarning sotib olish bahosidagi summasiga:

Debet 9120 <<Sotilgan tovarlarning tannarxi>>;

Kredit 2910 <<Ombordagi tovarlar>>.

b) sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi sotib olishga doir qo'shimcha xaraj atlar summasiga:

Debet 9120 <<Sotilgan tovarlarning tannarxi>>;

Kredit 1520 <<Tovarlarni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar>>.

4. Oldindan to 'lov summasiniyopilishiga:

Debet 6310 <<Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar>>

Kredit 4010 <<Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar>>

5. Xaridorlardan qarzni kelib tushishiga:

Debet 5110 <<Hisob-kitob schoti>>.

Kredit 4010 <<Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar>>;

4110 <<Alohida bo'linmalardan olinadigan schotlar>>;

4120 <<Shu'ba va qaram xo'jaliklardan olinadigan schotlar>>.

6. Tovarlarini sotishdan olingan daromadlarni hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishiga:

Debet 9020 <<Tovarlarini sotishdan olingan daromadlar>>

Kredit 9910 <<Yakuniy moliyaviy natija>>

7. Sotilgan tovcirlar tannarxini hisob bo'lighi oxirida moliyaviy natijalar schotigini o'tkazilishiga:

Debet 9910 << Yakuniy moliyaviy natija>>;

Kredit 9120 <<Sotilgan tovarlarning tannarxi>>.

Sotilgan tovarlar xaridorlar tomonidan turli sabablarga ko'ra qaytarilishi mumkin. Bunday hollarda qaytarilgan tovarlar omborlarga son va sifat jihatdan qayta kirim qilinadi.

Tovarlarining boshqa chiqimlarining hisobi. Ulgurji savdo korxonalarini o'zlarining tovarlarini boshqa korxona va tashkilotlarga investisiya sifatida kiritishlari, bepul berishlari, xo'jalik maqsadlarida ishlatilganligi va boshqa sabablarga ko'ra hisobdan chiqarishlari ham mumkin. Harakatdagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq ushbu xarakterdagi operatsiyalar ham tovarlarini sotish va sotilgan tovarlarning tannarxi schotlari orqali quyidagicha aks ettiriladi (24.6-jadval).

Ulgurji savdo korxonalarida o'zga tashkilotlarga tegishli bo'lgan va vaqtinchalik mas'ul saqlashga shartnoma asosida qabul qilingan tovar moddiy boyliklarning hisobi balansdan tashqari 002 <<Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar>> schotida qabul qilish – topshirish dalolatnomalari yoki schot-fakturalarda ko'rsatilgan baholarda olib boriladi. Ushbubaliolardatovar-moddiy boyliklarni mas'ul saqlashga kirim

qilinishi ushbu schotni debetida, qaytarilishi esa ushbu schotning kreditida aks ettiriladi. Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklarning tahliliy hisobi korxonalar bo'yicha tovar-moddiy boyliklari uchun ochilgan kartochkalarda, partion kartalarda olib boriladi.

3. Turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish

19-son BHMS16 ga muvofiq ulgurji savdo korxonalarida tovar va inventarlar quyidagi hollarda inventarizatsiya qilinishi lozim:

- qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o'g'rilik, o'zlashtirish va buzilishlar aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'in va boshqa favquloddagi holatlarda;
- xo'jalik yurituvchi subyektni tugatilishi, boshqa korxonalar tarkibiga qo'shilishi va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda. Tovar va taralar inventarizatsiyasining hisobot yilida o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy soni, ularni o'tkazish sanalari, doimiy harakatdagi inventarizatsiyakomissiyasi va bir marotabalik ishchi inventarizatsiya komissiyalarining tarkibi ulgurji savdo korxonasi rahbarining buyrug'i, farmoyishi yoki qarori bilan belgilanadi. Korxona buxgalteriyasida <<Inventarizatsiyani o'tkazish to'g'risida buyruqlarni bajarilishini nazorat

qilish kitobi» yuritiladi. Tovar va taralar inventarizatsiyasini o'tkazish savdo korxonasi rahbari buyrug'iga asosan moddiy javobgar shaxslardan inventarizatsiyani

boshlash sanasiga hisobot tuzib berish, shuningdek ushbu hisobotga barcha kirim va chiqim hujjatlari kiritilganligi, inventarizatsiyani boshlashga to'g'riqlilik qiladigan hechqanday obyektiv sabablar yo'qligi to'g'risida tilxat olishdan boshlanadi. Inventarizatsiya komissiyasi raisi oxirgi hisobotga ilova qilingan barcha kirim va chiqim hujjatlariga «Inventarizatsiyagacha hisobotga kiritilgan» yozuvni va sanani qo'yadi hamda ularni imzolaydi. Oxirgi hisobot asosida korxona buxgalteriyasi inventarizatsiya boshlanish sanasiga tovar va taralar bo'yicha hisob ma'lumotlarini aniqlab beradi.

Omborlardagi tovar va taralarni inventarizatsiya qilishdan oldin inventarizatsiya komissiyasi quyidagi ishlari amalga oshiradi:

- tovar va taralar joylashgan binolardagi qo'shimcha kirish va chiqish

eshiklarini plombalaydi;

- barcha tortish va oichash asboblarining sozligini tekshiradi;

- tovar va taralarni sanash, oichash oson boiish uchun ularing nomi,

navi, o'lchami va boshqa belgilari bo'yicha alohida guruhlariga va joylarga

ajratadi;

- ta'minotchilarning tara va boshqa o'rov materiallarida keltirilgan va ochilmagan (buzilmagan) holda turgan tovarlar alohida joylarga taxlanadi;

- o'zga yuridik shaxslarning mas'ul saqlashda boigan tovar-moddiy boyliklarning ro'yxati olinadi va ular tekshirish uchun alohida joyga taxlanadi;

Bir nechta omborlarda saqlanayotgan tovar-moddiy boyliklar ma'lum ketma-ketlikda inventarizatsiya qilinadi. Bir xonadan ikkinchisig'atilganda tekshirishdan o'tkazilgan xona qulflanishi va inventarizatsiya tugaguncha plombalanishi lozim.

Tovar va taralarning inventarizatsiyasi o'lchash, tortish, sanash orqali amalga oshiriladi. Aniqlangan natijalar belgilangan shakldagi «Inventarizatsiya ro'yxati»ga komissiya a'zolaridan bir tomonidan yozib boriladi. Tovarlarini o'lchash, tortish, sanash faqat ombor mudiri yoki moddiy javobgar shaxslar brigadasi a'zosi ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Inventarizatsiya ro'yxatida har bir tovar bo'yicha uning nomenklatura raqami, artikuli, navi, bahosi, soni ko'rsatiladi, ro'yxatning har bir beti oxirida unga yozilgan tovar-moddiy boyliklar tartib raqamining bosh va oxirgi soni ko'rsatiladi, shuningdek komissiya a'zolari o'z imzolarini qo'yadilar.

Inventarizatsiya o'tkazilayotgan vaqtda kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar moddiy javobgar shaxs tomonidan inventarizatsiya komissiyasi ishtirokida qabul qilinadi va ular bo'yicha alohida «Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiya ro'yxati tuziladi. Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida rahbarning yozma ruxsati bilan ombordan chiqarilgan tovarlar bo'yicha komissiya tomonidan alohida

«Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida ombordan chiqarilgan tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiyaro'yxati tuziladi.

Omborlarda mas'ul saqlanayotgan o'zga yuridik shaxslarning tovar moddiy boyliklari bo'yicha alohida «Mas'ul saqlashdagi tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiya ro'yxati tuziladi. Moddiy javobgar shaxslarning bo'ynida bo'lgan, lekin boshqa joylarga mas'ul saqlashga berilgan tovarlar bo'yicha ham alohida ro'yxat tuziladi. Ushbu ro'yxatga ma'lumotlar chiqim hujjati asosida kiritiladi. Komissiya tovarlar mas'ul saqlanayotgan joydagi korxonadan ushbu tovarlar bo'yicha alohida inventarizatsiya ro'yxatini talab qilib oladi va undagi ma'lumotlari o'zlari tuzgan inventarizatsiya ro'yxati ma'lumotlari bilan taqqoslaydi. Inventarizatsiya varaqalari ikki nusxada tuziladi, moddiy javobgar shaxslar almashilayotganda yoki huquqni muhofaza etish organlari,

auditorlik tashkilotlari ishtirokidagi hollarda esa uch nusxada tuziladi. Qayta baholash maqsadida o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari komissiya tomonidan <<Qayta baholash dalolatnomasi>> bilan rasmiylashtiriladi. Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan to'liq rasmiylashtirilgan va buxgalteriyaga taqdim etilgan inventarizatsiya ro'yxati ma'lumotlari buxgalteriyada hisob ma'lumotlari bilan taqqoslanadi va inventarizatsiya natijalari aniqlanadi. Buning uchun maxsus <<Taqqoslar qaydnoma>> tuziladi, unga har bir chetlanish aniqlangan tovar va tara bo'yicha quyidagi ma'lumotlar yoziladi: to'vaming nomi, navi, artikuli, o'lchov birligi, bahosi, haqiqiy soni va summasi, hisobdagi soni va summasi, kamomad yoki ortiqchani soni va summasi. Ushbu qaydnoma komissiya raisi, bosh hisobchi, ombor mudiri tomonidan imzolanadi va korxona rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Rahbarning qarori inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi. Inventarizatsiya natijalari hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi

O'tkazilgan inventarizatsiya natijalari bo'yicha tovar va taralarning ombor hisobi registrlariga (kartochkalar, kitob, qaydnomalar) tuzatish yozuvlari qilinishi, shuningdek ular moddiy javobgar shaxslarning inventarizatsiyadan keyin tuzilgan birinchi tovar hisobotlarida mos ravishda kirim va chiqim qismlarda alohida qatorda aks ettirilishi lozim.

9-mavzu. Kreditlar va qarzlar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish.

Reja:

1. Kreditlar bo'yicha hisob-kitoblar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. Debitorlik va kreditorlik qarzlar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish.
2. Qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish
3. Kreditlar va qarzlar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishda tahlil usullarini qo'llash
4. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishni yakunlash va natijalarini rasmiylashtirish.

1. Kreditlar bo'yicha hisob-kitoblar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish

Ulgurji savdo korxonalarining asosiy funksiyasi chakana savdo korxonalariga, Shuningdek tovarlari o'zlarining xo'jalik maqsadlarida ishlatadigan boshqa tarmoq xo'jalik vurituvchi subyektlariga naqd pulsiz shaklda sotish hisoblanadi. Buning uchun ularning o'zlarini oldin tovarlari turli ishlab chiqarish korxonalari va boshqa manbalardan sotib oladilar. Tovarlari sotishgacha ulgurji savdo korxonalari ularni o'zlarining omborlarida saqlaydilar va xaridorlarga tuzilgan shartnomalarga muvofiq sotadilar. Tovar operatsiyalarini olib borish uchun ulgurji savdo korxonalarida

barcha shart-sharoitlari yaratishi lozim. Bunday shart-sharoitlar, jumladan, quyidagilar hisoblanadi:

- tovar-moddiy boyliklari butun va sifatli saqlanishiga imkon beruvchi barcha kommunikatsiya vositalarga, tushirish va yuklash, saralash, o'lchash, o'rash, qadoqlash, transportirovka qilinishiga imkon beruvchi, tegishli ravishdagi parametrlardagi maydonlarga, shuningdek maxsus jihozlangan asbob-uskunalar, texnika hamda texnologik vositalarga va shu kabilarga ega bo'lgan ombor xo'jaligining mavjudligi;

- tovar-moddiy boyliklar bo'yicha moddiy javobgarlikni o'rnatilishi;

- tovar-moddiy boyliklarning kirimi va chiqimini tegishli ravishda hujjatli rasmiylashtirilishi;

- tovar-moddiy boyliklarning holati va harakatini soniy va summaviy jihatdan aniqlash, o'z vaqtida tavsiflovchi ombor va buxgalteriya hisobining yuritilishi. Ulgurji savdoni amalga oshirish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi <<Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida» 125- son qaror¹⁴ va 2002-yil 27-noyabrda «Yuridik vajismoniy shaxslari ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 407-son qaror va «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom» bilan belgilangan. Ushbu me'yoriy hujjatlarga asosan 2002-yil 1-dekabrda boshlab ulguri savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat shartnomalar asosida nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg'un savdo tannog'iga ega bo'lgan yuridik shaxslarga, maxsus istc'molchilarga davlat ta'minoti muassasalariga, davlat ta'minoti muassasalarini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan savdo firmalariga, o'z ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati uchun yuridik shaxslarga ulgurji sotadilar.

Ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi guvohnomasini olish uchun yuridik shaxslar quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- tovarlarning saqlanishini, turkumlanishini, sortlarga ajratilishini va butligini ta'minlovchi o'z omborlari va asbob-anjomlari mavjud bo'lgan moddiy-texnika bazasiga ega bo'lishi lozim;
- ustav jamg'armasini shakllantirgan bo'lishi lozim.

Ulgurji savdoga ruxsat guvohnomasini olish uchun yuridik shaxslar

soliq to'lovchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tuman (shahar)

hokimligiga quyidagi hujjatlari taqdim etishlari zarur:

- ariza;
- yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma nusxasi;
- ustavning «ulgurji savdo» faoliyat turi ko'rsatilgan, notarial tasdiqlangan nusxasi;
- yuridik shaxsda tegishli moddiy-texnik bazasining mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- ustav jamg'armasining Nizomda talab qilingan pul mablag'lari to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi.

2. Qarzlarning bo'yicha hisob-kitoblarning Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish

Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarining sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi (Tt), o'z ichiga quyidagilari oladi:

1. Sotib olishda iovcir yetkazib beruvchi bilan tuzilgan

shartnomada ko'rsatilgan buho (SHb);

2. Sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlar (Sx).

Bularga sotib olish bilan bog'liq brokerlik xizmatlari, komission (vositachilik) xarajatlar, tashib keltirish xarajatlari (temir yo'l, suv, havo yo'llari va boshqa transport tashkilotlarning yuklash, tushurish, yetkazib berish xarajatlari), tovarlari sertifikatlash xarajatlari va shu kabilar kiradi;

3. Bojxona to'lovlari (Bt). Bojxona to'lovlariga aksiz solig'i (A), qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), bojxona boji (Bb), bojxona yig'imi (By) kiradi. Bu xarajatlar chet eldan import qilingan tovarlarga taalluqli bo'lib, ularning summalarini bojxona yuk deklarasiyalarida (B YUD) ko'rsatiladi. Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralarining sotib olish qiymati (tannarxi)ni aniqlashning matematik qurilmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Tt = SHb + Sx + Bt$$

bu yerda: $Bt = A + QQS + Bb + By$

Ushbu matematik qurilma bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarining sotib olish qiymatini (tannarxini) belgilash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Birinchidan, kelib tushgan tovarlarning sotib olish bahosi boshlang'ich hujjatlarga (schot fakturalar, BYUD) asosan aniqlanadi. Ushbu baholar tomonlaro'rtasida tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)gamos bo'lishi lozim. **Ikkinchidan**, boshlang'ich hujjatlarga (schot fakturalar, BYUD) asosan ta'minotchilarga har bir tovar bo'yicha to'langan QQS summasi topiladi. QQS summasi uni sotib olish bahosini 20 foizga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Uchinchidan, tovarlari sotib olinishiga bevosita aloqador bo'lgan turli xizmat xarajatlari (tashib keltirish, brokerlik, vositachilik, sertifikatlash va boshqalar) summasi ushbu xizmatlari ko'rsatgan tashkilotlarning taqdim etgan schotlari bo'yicha aniqlanadi. Topilgan summajami kelib tushgan tovarlarning sotib olish qiymatiga (QQS siz) bo'linadi va natija 100 foizga ko'paytirilib, bir so'mlik tovarga to'g'ri keladigan xizmat xarajatlarining o'rtacha tbizi aniqlanadi. Ushbu o'rtacha foizni har bir tovarning sotib olish narxiga (QQS siz) ko'paytirish va 100 foizgabo'lish orqali uning sotib olish bahosiga kiritiladigan xizmat turlari xarajatlarining o'rtacha summasi aniqlanadi. **To'rtinchidan**, import tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlarining har bir birlik tovarning sotib olish narxiga qo'shiladigan mos ravishdagi aksiz solig'i, QQS solig'i, bojxona boji va bojxona yig'implari summasi topiladi. Ushbu sanab o'tilgan muolajalar amalga oshirilgandan so'ng kelib tushgan har bir birlik tovarning o'rtacha sotib ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning sotish baholarini belgilashda

quyidagi tartiblarga amal qilinishi lozim.

1. Savdo ustamalarining chegaralari davlat tomonidan belgilanmagan tovarlar bo'yicha sotish baholari kelishuv shartnomalariga muvofiq belgilanadi. Bunday tovarlar bo'yicha ularning sotish baholari shartnomalarda qat'i summada yoki baza deb olingan sotib olish qiymati (tannarx) ustiga kelishilgan savdo ustamalari foizini ko'rsatishyo'li bilan belgilanadi.

2. Savdo ustamalari me'yorlarining chegaralari davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy ahamiyatgaegaboigan iste'moltovarlarining alohida turlari (bunday harakt yerdagi iste'mol tovarlari sifatida respublikamizda un, o'simlik yog'i va shakar hisoblanadi) bo'yicha sotish baholari O'zbekiston Respublikasi Yozirlar Mahkamasining 2001-yil 31- oktabrdagi "Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlari bilan savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida>>gi 433-son qarori va ushbu qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat

Qo'mitasi va Davlat Soliq Qo'mitasining qo'shma qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2001 -yil 13-noyabrda 1083- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan <<Ijtimoiy ahamiyatga ega boigan iste'mol tovarlarining alohida turlari (un, o'simlik yog'i va shakarga savdo tashkilotlari tomonidan cheklangan savdo ustamalarini qo'llash tartibi to'g'risidaNizom>> ga asosan baza deb olingan sotib olish qiymatidan ulguiji va chakana savdo ishtirokchilarining sonidan qat'i nazar 25 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni

e'tiborga olgan kelishuv shartnomalariga muvofiq belgilanadi. Ushbu Nizomda belgilangan tartibga ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlarining alohida turlari(un, o'simlik yog'i va shakar) bo'yicha savdo ustamalarining belgilangan eng ko'p miqdori ulgurji-chakana savdo bo'g'inlari o'rtasida ularing

sonidan qat'i nazar bo'linishi, shuningdek sotishjarayonidaqatnashayotgan har bir ishtirokchi (bo'g'in) o'zining schot-fakturasini to'ldirishda belgilangan tartibga amal qilishi shart.

3. Savdo ustamalari me'yorlarining chegaralari davlat tomonidan belgilangan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bo'vicha sotish baholari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi "Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari sotishni tartibga solish to'g'risida"gi 1-son qarori, 2000-yil 5-avgustdagi "Ichki bozori dori - darmon

vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 307-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2000-yil 29-sentabrda 974- son raqam bilan ro'yxatga olingan "Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini sotishda savdo ustamalarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizom" ga muvofiq ularing keltirish manbalariga ko'ra baza deb olingan sotib olish qiymatidan ulg'ij va chakana savdo ishtirokchilarining sonidan qat'i nazar kelishuv shartnomalarida quyidagicha belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining lisenziyasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan import bo'yicha sotib olingan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bo'yicha-20 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni e'tiborga olgan holda;

- Qolgan dori - darmonlar bo'yicha esa 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdori e'tiborga olgan holda. Savdo ustamalarini savdo bo'g'inlari o'rtasida to'g'ri taqsimlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu taqsimot shunday bo'lishi kerakki, u tovarlarni, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlari, dori darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini, iste'molchilarga yetkazuvchi barcha savdo bo'g'inlarini daromad olishiga va buning evaziga o'zlarining xarajatlarini qoplashi va ma'lum miqdordagi foydani olinishiga imkon yaratishi kerak. Savdo ustamalarini birinchi bo'g'inlardakatta me'yorda qo'yilishi va belgilangan chegaraviy me'yori to'liq ishlatilib qo'yilishi oxirgi savdo bo'g'inida tovarlarni savdo ustamasi bilan sotish huquqini yo'qolishiga, buning evaziga ulari sotishdan daromad emas, balki zarar ko'rishga olib kelishi mumkin.

10-mavzu. Hisobot davrining yakunlanishi

Reja:

1. Elektron raqamli imzo. Elektron tijorat texnologiyalari va internet tijorati mazmuni
2. Hisobot davrining yakunlanishiga tayyorgarlik. Hisobot davrining yakunlanishi.
3. Reglament operatsiyalarining detallashtirilishi. Reglamentlashtirilgan hisobotlar.

1. Elektron raqamli imzo. Elektron tijorat texnologiyalari va internet tijorati mazmuni

Respublikamiz xalq xo'jaligini rivojlantirishda transport tarmog'i muhim ahamiyatga ega. Bu tarmoq o'z ichiga temir yo'l, havo yo'llari, daryo, dengiz, yer osti va yer usti yo'llari transportlarini oladi.

Respublikamizning geografik o'rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti, uni dunyoning boshqa mamlakatlari bilan bog'lovchi daryo va dengiz yo'llarining yo'qligi, shuningdek boshqa obyektiv va subyektiv sharoitlar sababli mamlakatimiz transport tarmog'ida avtotransport o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunonchi, respublikamizda tashilayotgan yuk hajmining 85 foizi, yo'lovchi tashish hajmining 96 foizi aynan avtotransportga to'g'ri keladi.

Bu, o'z navbatida, avtotransport xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni xalq xo'jaligida katta ahamiyat kasb etishi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobining muhim subyektlaridan biri ekanligini bildiradi.

Avtotransport korxonalarini buxgalteriya hisobi subyekti sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflash va tavsiflash mumkin.

Mulkiy shakliga ko'ra avtotransport korxonalari davlat, nodavlat hamda aralash mulk shaklidagi korxonalarga bo'linadi.

Tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra avtotransport korxonalari ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat,

xususiy korxona hamda davlat unitar korxonasi kabi turlarga bo'linadi. Bu turdagi korxonalarni tuzish va ular faoliyatini yuritish tartibi respublikamizning maxsus qonunlari va davlat korxonalari to'g'risidagi nizom bilan belgilangan.

Faoliyat yuritish doirasiga ko'ra avtotransport korxonalari xalqaro va mahalliy miqyosda faoliyat yurituvchi korxonalar hisoblanadi. Mahalliy miqyosdagi avtotransport korxonalari, o'z navbatida, faoliyatini shaharlararo va shahar miqyosida yurituvchi korxonalarga bo'linadi.

Ixtisoslashganligiga ko'ra avtotransport korxonalari yuk tashish hamda yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan korxonalarga bo'linadi. Ushbu turdagi korxonalar mos ravishdagi avtotransport vositalariga ega bo'ladi. Mos ravishdagi transport vositalariga egalik qilish ushbu korxonalarning nomlanishida ham o'z aksini topadi. Misol uchun, "Avtobus parki", "Taksomotor parki", "Avtobaza",

"Avtojamg'arma" kabi nomlardan ushbu korxonalarning qaysi xizmat turiga ixtisoslashganligini bilish mumkin.

Tanlagan soliq rejimiga ko'ra avtotransport korxonalari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq tartiblarida ishlovchi korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq mikrofirm va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalari ixchamlashtirilgan soliq to'lovlari rejimida ishlashlari mumkin. Yirik va o'rta korxonalar hisoblangan avtotransport korxonalari, odatda, umumbelgilangan soliqlarni to'laydilar.

Respublikamizning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq avtotransport korxonalarining faoliyati asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga bo'linadi. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyati avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hisoblanadi. Ularning asosiy bo'lmagan faoliyatiga moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) deganda avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) tushuniladi. Avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmining pul birligidagi qiymati mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o'z aksini topadi.

Avtotransport vositalari tomonidan bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) hajmini ifodalovchi son hamda sifat ko'rsatkichlar avtotransport korxonasining ma'lum davrlar uchun tuziladigan biznes reja (transmoliya reja)sida o'z aksini topadi. Buxgalteriya hisobi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha biznes reja (transmoliya reja)da ko'rsatilgan marralarning bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarining yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari qat'iy litsenziyalanadigan faoliyat hisoblanadi. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqi avtotransport korxonalariga O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan beriladi.

Avtotransportda yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ular bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs xodimlari va yakka tartibdagi tadbirkorlardan maxsus malakaviy talablarga javob berishni taqozo etadi. Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan

tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 28-iyunda 1377-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan "Avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar xodimlari va individual tadbirkorlarga qo'yiladigan malakaviy talablar to'g'risidagi" Nizomda to'liq keltirilgan.

3. Hisobot davrining yakunlanishiga tayyorgarlik. Hisobot davrining yakunlanishi

Avtotransport korxonalari hisob siyosatida boshqa turdagi korxonalar singari tanlab olingan buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schyotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishini tashkil qilish, tovar-moddiy boyliklarning inventari-zatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar o'z aksini topishi lozim.

Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda ularning katta-kichikligi, maqomi, hujjatlar soni va boshqa jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, yirik avtoxo'jaliklarda bajariladigan hisob-kitob ishlarining ko'pligi maxsus buxgalteriyani tashkil qilishni, shuningdek uning tarkibida alohida bo'limlarni (masalan, transport vositalari ish faoliyati hisobi bo'limi, moddiy boyliklar hisobi bo'limi, mehnat va unga haq to'lash hisob-kitobi bo'limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo'limi va boshqalar) ochishni taqozo etadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalarida maxsus hisob bo'linmasi tashkil qilinmasligi, ushbu ishlar shartnoma asosida ishga qabul qilingan yakka buxgalter yoki maxsus buxgalterlik firmalari tomonidan yuritilishi mumkin.

Avtotransport korxonasida buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil etilganligiga uning rahbari bevosita javobgar va mas'uldir. Chunonchi, rahbar buxgalteriya hisobi tashkil etilishi va yuritilishini ta'minlash maqsadida buxgalteriya to'g'risidagi qonun, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, buxgalterlar o'rtasida funksional majburiyatlar taqsimoti, mehnat shartnomalari va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni o'z buyrug'i bilan tasdiqlashi lozim. Ushbu ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish avtoxo'jaliklarda buxgalteriya hisobi to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishi uchun muhim omillardan hisoblanadi.

Avtotransport korxonalari hisob siyosatida avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlar, ularga doir sarf-xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tan olish va hisobini yuritish usullari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Chunonchi, hisob siyosatida naqd pul asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni kassa usulida, naqdsiz pul asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni esa hisoblash usulida tan olish hamda hisobga olish tartibini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, haydovchilar tomonidan yo'lovchilardan terib olingan naqd pul hisobidan qilingan sarf-xarajatlar (masalan, yo'lda olingan yoqilg'i, ehtiyot qismlar, ta'mirlashga sarflangan pul mablag'lari)ni daromad sifatida tan olish va tegishli schyotlarda aks ettirish tartibi hisob siyosatida aniq ifodalanishi lozim.

Avtotransportda naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlarni tan olishda hisob-kitob hujjatlarini taqdim etish bo'yicha belgilangan tartib muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shartnomalarda belgilangan tartibga ko'ra naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlar schyot-fakturalar asosida har kuni, har oy oxirida, ish (xizmat)lar to'liq yoppasiga tugagandan so'ng tan olinishi mumkin. Avtotransport korxonasi tomonidan

daromadlarni tan olish va hisobini yuritishning ushbu usullardan qaysi biri tanlab olinganligi yoki ularning har birini qaysi turdagi ishlar uchun qo'llanilishi hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Avtotransport yordamida bajarilgan ish(ko'rsatilgan xizmat)larning xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ular bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi, ya'ni hisobot davri davomida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga qilingan barcha sarf-xarajatlar shu hisobot davrida ushbu ish (xizmat)lar tannarxi sifatida tan olinadi va hisobdan chiqariladi. Respublikamizda qabul qilingan tartiblarga muvofiq transport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan sarf-xarajatlar hisoblash usuli bo'yicha, shuningdek hisobot davrlari daromad va xarajatlarining mosligi, muhimlik kabi tamoyillar asosida tan olinishi hamda hisobda aks ettirilishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini aniqlashda turli kalkulyatsiya birliklari qo'llaniladi. Chunonchi, yuk tashish avtotransportlari uchun tannarx kalkulyatsiyasi ularning turlari bo'yicha

1 soatlik ish, 1 tonna yuk, 1 tonna-kilometr tuziladi. Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan avtotransportlar uchun tannarxni kalkulyatsiya qilish birligi sifatida transport vositalarining turlari bo'yicha 1 soatlik ish, 1 ta yo'lovchi yoki 1 kishi-kilometr olinadi. Avtotransport korxonalari ushbu kalkulyatsiya birliklari bo'yicha bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar tannarxi hisobini hisobot davrida normativ tannarx, reja tannarxi yoki haqiqiy tannarx usullaridan biri bo'yicha olib chunonchi, ularni avtomashinalarga qo'yilgan vaqtda hisobdan chiqarish aynan shu davrga to'g'ri keluvchi tannarx summasini keskin oshib ketishiga olib keladi. Ushbu aktivlarni belgilangan xizmat muddatlarida bir maromda hisobdan chiqarib borish tartibini qo'llash tannarxni keskin oshib ketishi oldini oladi. Shuning uchun ham avtotransport korxonalarida ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning ratsional usulini tanlab olish va unga borishlari mumkin. Ushbu usullarning qaysi biri tanlab olinganligi avtotransport korxonasining hisob siyosatida o'z aksini topishi lozim. Me'yoriy tannarx va reja tannarxi usullarini tanlab olgan korxonalar hisob siyosatida mos ravishda me'yoriy va reja tannarxidan chetlanishlarni hisobga olishning aniq tartibi belgilanishi lozim. Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning tannarxi, shuningdek avtotransport korxonasi tomonidan olinadigan foyda summasi ularga sarflangan materiallar (yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) qiymatini baholash usullariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Respublikamizning 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"ga muvofiq avtotransport korxonalari o'z moddiy boyliklari qiymatini FIFO, AVECO, identifikatsiyalash usullari bo'yicha hisobini yuritishlari mumkin hisoblanadi.

Belgilangan tartibga ko'ra, ushbu usullarning barchasini qo'llash ta'qiqlanmagan. Biroq, avtotransport korxonalarida boshqa korxonalaridagi kabi bir xil nomdagi TMZlar bo'yicha bir vaqtning o'zida baholashning turli usullarini qo'llash mumkin emas. Shu bois ham, avtotransport korxonalari o'zlarining hisob siyosatida TMZlar qiymatini baholashning tanlangan usullarini ularning turlari bo'yicha aniq ko'rsatishlari hamda unga amal qilishlari lozim. Avtotransport korxonalari faoliyatida avtotransportga qo'yiladigan avtoshinalar, akkumulyator va shu kabi boshqa agregatlar muhim o'rin tutadi. Ushbu ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning belgilangan tartibi ham bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Reglament operatsiyalarining detallashtirilishi. Reglamentlashtirilgan

hisobotlar

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari buxgalteriya hisobining obyektlari bo'lib asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va operatsiyalar, faoliyat turlari olib borilishini ta'minlovchi aktivlar, aktivlarni tashkil topish manbalari, shuningdek erishilgan moliyaviy natijalar hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ushbu obyektlari avtotransport korxonalarida, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga, ikkinchi tomondan esa, barcha korxonalardagi umumiy jihatlarga ega.

Avtotransport korxonalari asosiy faoliyatini bevosita avtotransport vositalari bilan bog'liqligi buxgalteriya hisobidan, avvalarbor ushbu vositalarning mavjud holati va harakati, ular yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar, olingan daromad va qilingan xarajatlar, avtotransport xizmatidan erishilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash kabi funksiyalarni bajarishni taqozo etadi. Bundan tashqari, hisob xodimlari avtotransport vositalari ish faoliyatini soniy va sifat jihatdan ifodalovchi ko'rsatkichlarni doimiy nazorat va tahlil qilish, nazorat va tahlil natijalarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida rahbariyat hamda boshqa foydalanuvchilarga o'z vaqtida yetkazib berish kabi funksiyalarni ham bajarishlari lozim.

Yengil avtomobillar dvigatellarining ishchi hajmiga ko'ra juda kichik (1,1 litrgacha), kichik (1,1 litrdan 1,8 litrgacha), o'rta (1,8 litrdan 3,5 litrgacha), katta (3,5 litrdan ortiq) turlarga bo'linadi.

Yuk tashish avtomobillari og'irligiga (massasiga) ko'ra quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi:

1-guruh – 1,2 tonnagacha;

2-guruh – 1,2 tonnadan 2,0 tonnagacha; 3- guruh – 2,0

tonnadan 8,0 tonnagacha; 4-guruh – 8,0 tonnadan 14,0

tonnagacha; 5-guruh – 14 tonnadan 20,0 tonnagacha;

6-guruh – 20,0 tonnadan 40,0 tonnagacha; 7-guruh – 40,0

tonnadan yuqori.

3.2 Amaliy mashgʻulotlar uchun oʻquv materiallari

1-amaliy mashg'ulot. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish faniga kirish.

Masala . Byudjetdan moliyaviy ta'minlanadigan davolash-profilaktika muassasalari dori-darmonlar va tibbiyotga oid buyumlarni berish paytida:

Xarid qiymati - 100 so'm.

Ulgurji savdo ustamasini hisobga olganda sotish narxi - 120 so'm (ustama 20%).

Chakana savdo ustamasini qo'llagan holda hisobga olish - hisob-kitob narxi - 150 so'm (ustama 25%).

Sotib olingan dori-darmonlar va tibbiyotga oid buyumlarni xarid qiymatini hisobdan chiqarish

Dori-darmonlar va tibbiyotga oid buyumlarni oladigan davolash muassasalari hisobdan chiqarilgan (berilgan) dori-darmonlar va tibbiyotga oid buyumlar bo'yicha har oyda bir marta buxgalteriya hisobida qanday buxgalteriya provodkasi beriladi.

Masala . «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi 12 000 000 so'mga transport vositasini sotib oldi. Uyushma transport vositaning xizmat qilish muddatini besh yil yoki 200 000 km, va tugatish qiymatini 15 000 so'm deb baholaroqda. 2003 yilda transport vositasi 48 000 km yurgan. Ushyuma uchun moliyaviy yil 31 dekabrda tugaydi.

2003 moliyaviy yilga 13 yanvar 2002 yilda sotib olingan transport vositasi uchun amortizasiya hisoblang va schetlarda aks ettiring.

2- amaliy mashg'ulot. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini axborot tizimiga kiritish.

Masala . Boshlang'ich bahosi 3 240 000 so'm, hisoblangan eskirish summasi 1 800 000 so'm bo'lgan uskuna hisobdan chiqarildi. Bosh daftarda aks ettirish uchun asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishiga buxgalteriya provodkasini bering, quyidagi har bir holatni hisobga olgan holda: (a) hech qanday qiymati bo'lmagan aktiv sifatida, (b) 600 000 so'mga sotilgan, (v) 1 600 000 so'mga sotilgan.

Masala . Shahar markaziy shifoxonasi yil davomida uchta transport vositasini sotib oldi:

10 fevralda	mashina 1	7 600 000
26 iyulda	mashina 2	24 000 000
11 oktyabrda	mashina 3	43 200 000

Har transport vositaisning xizmat qilish muddati olti yil, tugatish qiymati nolga teng. Kompaniyaning moliyaviy yili kalendar yilga to'g'ri keladi. Hisobot yiliga har bir mashina uchun amortizasiya hisoblashning to'g'ri chiziqli usulini qo'llagan holda eskirish hisoblang.

Masala. «Shifonur» klinikasi o'zining rentgen xonasi uchun maxsus rentgen mashinasini sotib oldi. Mashinaning qiymati 31 156 000 so'm, foydali xizmat ko'rsatish muddati o'n yil va tugatish qiymati 315 600 so'm. Ikki yil foydalanilgandan keyin (to'g'ri chiziqli usulda eskirish hisoblangan) rentgen mashinasining foydali xizmat muddati sakkiz yil ekanligi aniqlandi. Tugatish qiymati o'zgarmagan. Ushbu axborotdan foydalanib, uchinchi yil uchun amortizasiya ajratma summasini aniqlang.

3- amaliy mashg'ulot. Buxgalteriya hisobida pul mablag'lari Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobiti avtomatlashtirish.

Masala . «Iktisodiyot Universiteti» yangi o'quv markazini 2004 yilda qurib bitkazdi. Sizni o'quv markaz menejer lavozimida yollashdi. Hisob yozuvlarini o'rganish natijasida «O'quv markaz» schetining debetida quyidagi xarajatlar borligi aniqlandi:

Yer qiymati	598 000
Yerni sotib olish uchun yurist gonorari	34 900
Arxitektor gonorari, bino dizayni	102 000
Pudratchilarning xizmat haqi, bino	1 020 000
Pudratchilarning xizmat haqi, avtoto'xtash	135 600
Pudratchilarning xizmat haqi, elektr ta'minot (bino uchun)	164 000
Geodeziya xarajatlari	9 200
O'quv markazi uchun uskuna, stol va stullar	1 364 000
O'quv markazida uskunani o'rnatish xarajatlari	68 000

Yerni tekislash uchun xarajatlar	14 000
Landshaft (manazarani) o'zgartirish	55 000
Jami schet saldosi	<u>3 564 700</u>

Markazning qurilish davrida «Iqtisodiyot Universitet» xodimi to'liq stavkada ushbu loyihada ishladi. Qurilish maydonchasi sotib olish va tayyorlashga uning ikki oy vaqti, yerni obodonlashtirish uchun bir oy vaqti, xonalar uchun uskuna, stol va stullarni sotib olish va o'rnatish uchun bir oy vaqti ketdi. Xodimga to'qqiz oy davomida 72 000 so'm miqdorida ish haqi hisoblangan va ma'muriy xarajatlarida aks ettirilgan. O'quv markazi 1 noyabrda o'z ishini boshlagan.

Talab qilinadi:

1. «Yer», «Yerni obodonlashtirish», «Bino» va «Uskuna» ustun (schet)lardan iborat bo'lgan jadval tayyorlang. Yuqorida sanab o'tilgan har bir xarajatlarni kerakli ustunda yozing. Har bir ustunning jamini hisoblang.
2. 31 dekabr holatida o'quv markaziga tegishli bo'lgan kerakli tuzatish yozuvlarini bering, yil oxirida schetlar yopilmagan degan taxmin bilan.

Masala . Universitet talabalariga xizmat ko'rsatadigan kimyoviy yuvish salonini ochdi. Kir yuvish mashinasiga qo'shimcha ravishda, dazmollash mashinasi va bufet o'rnatdi. Har bir aktiv har xil funksiyani bajarganligi uchun amortizasiya hisoblashning turli usullarni qo'llashga qaror qildi. Dazmollash mashinasi 20x1 yilda 2 100 soat, 20x2 yilda 3 000 soat, 20x3 yilda 2 400 soat ishlatilgan. Har bir aktiv bo'yicha ma'lumot quyidagi jadvalda keltirilgan:

Aktiv	Sotib olish sanasi	Boshlan-g'ich qiymati	O'rnatish bo'yicha xarajatlari	Tugatish qiymati	Xizmat qilish muddati	Amortizatsiya hisoblash metodi
Kir yuvish mashinasi	5.03.20x1	3 000 000	40 000	52 000	4 yil	To'g'ri chiziqli usul
Dazmollash mashinasi	1.04.20x1	680 000	60 000	20 000	7 500 soat	Ishlab chiqarish usuli
Bufet	1.10.20x1	300 000	12 000	12 000	10 yil	Ikkilangan kamayib boruvchi qoldiq usul

Talab qilinadi:

Har bir aktivga 31 dekabr tugaydigan 20x1, 20x2 va 20x3 moliyaviy yillar uchun alohida amortizasiya ajratmasini hisoblang. Hisob-kitoblaringizni yaxlitlang va javoblaringizni quyida keltirilgan jadval shaklida bering.

Aktiv	Yil	Hisob-kitoblar	Amortizasiya		
			20x1	20x2	20x3

4- amaliy mashg'ulot. Mehnatga haq to'lash va ish haqi bo'yicha hisob kitoblar hisobini avtmalashtirish.

Masala . Madaniyat kasb xunar kollejiining kassasida 10 - fevralda inventarizasiya o'tkazildi. Katta kassir komissiyaga 12 500 so'm miqdoridagi naqd pulni ko'rsatdi. Kassa hisoboti ma'lumotiga binoan kun boshidagi qoldiq 556 so'm. Birinchi kassa tushumi 151 kassa kirim orderi bilan 10

fevralda 30 000 so‘m, ikkinchi kassa tushumi 152 kassa kirim orderi bilan 10 fevralda 33 000 so‘m, 132 kassa chiqim orderi bilan 10 fevralda 44 800 so‘m tushum bankka topshirilganligi aks ettirilgan. Kassir o‘z tushuntirishida kassadan ish haqigacha qarz shaklida pul berilganligi aytib o‘tilgan:

Ergashev (farrosh) 2.500 so‘m

Kuprey (ishchi) 1.400 so‘m

Madiyeva (kassir) 2.000 so‘m

Kassirning tushuntirishi bo‘yicha ushbu summalar ish haqi kuni kassaga qaytarilib topshiriladi. Inventarizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni bajaring.

Masala . Bank tomonidan kassadagi limit qoldiq 10 000 so‘m deb belgilangan. Kassa bo‘yicha registr yozuvlariga binoan va kassa hisobotlari bo‘yicha tekshiriladigan davrda pul mablag‘larining qoldig‘i quyidagicha:

1 Fevralda 1.500 so‘m

18 Fevralda 760.000 so‘m

1 Mart 22.000 so‘m

1 Aprel 28.650 so‘m

15 Aprel 14.870 so‘m

2 May 13.700 so‘m

15 May 13.700 so‘m

5 Iyun 472.700 so‘m

1 Iyul 12.700 so‘m

10 Iyul 16.800 so‘m

1 Avgust 11.300 so‘m

10 Sentyabr 15.700 so‘m

10 Oktyabr 15.800 so‘m

12 Dekabr 17.800 so‘m

Kassadagi pul mablag‘larini koldigini tekshirishda shuni nazarda tutish lozimki savdo korxonasi uchun xar oyning uchinchi va o‘n yettinchi sanasida ish xaki beriladigan kun deb belgilangan.

Masala . Boshlang‘ich hujjatlarni tekshirishda va xo‘jalik operatsiyalarini sodir bo‘lgan sanasi va hisobda aks ettirilgan sana bilan solishtirilganda quyidagilarni aniqladi:

Hisobot yilining 27 dekabrda asosiy vositalar obyekti mebel sotilgan. Shartnoma va qabul-qilish-topshirish dalolatnomasiga binoan qiymati 600000 so‘m deb belgilangan.

Obyektning boshlang‘ich bahosi 500 000 so‘m. Jamg‘arilgan eskirishi 80 000 so‘m. Xaridorlar bilan hisob kitoblar amalga oshirilmagan. Ushbu xo‘jalik operatsiyasi hisobot yilining oxirgi sanasi holati bo‘yicha buxgalteriya hisobi schetlarda o‘z aksini topmagan.

Ushbu operatsiyalarni hisobda aks ettiring.

Masala . Iqtisodiyot Universitetning o‘quv-malaka oshirish markazi muddatsiz vaqtga lisenziya sotib oldi va 47000 so‘m to‘lagan. Ushbu lisenziya markaz tomonidan nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritilgan. Nomoddiy aktivlar qiymatining har oyda amortizatsiya summasi sifatida muassasani saqlash uchun xarajatlar schetiga olib borilmoqda. Ushbu operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshiring va kerakli tavsiyalarni bering.

5-amaliy mashg‘ulot. Uzoq muddatli aktivlar hisobini avtomatlashtirish.

Masala . Korxona joriy yilning ikkinchi yarim yilligiga me‘yoriy-texnik xarakteridagi matbuot nashriga 42 000 so‘mga obuna bo‘ldi. Hisobda quyidagicha aks ettirilgan:

sana	operatsiya mazmuni	Hujjat	buxg.provodka		summasi so‘m
			debet	kredit	
28.05	2-yarim yillik uchun obuna to‘landi	kvitansiya	200	178	42 000
30.05	muassasani saqlash bo‘yicha xarajatlar	hisob-kitob	178	090	42 000

Ushbu operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshiring va kerakli tuzatishlarni bering.

Masala . Muassasa yil davomida xodimlari uchun «Zumrat» kafesida maxsus ovqatlanishni tashkil qilgan. Ushbu xarajat moddasi yil davomida 288 000 so‘mni tashkil qilgan. Har oyda ushbu xarajat moddasi buxgalteriyada quyidagicha aks ettirilgan:

Dt 178 Kt 120 - 24.000 so‘m

Ushbu operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshiring va kerakli tuzatishlarni bering.

6- amaliy mashg‘ulot. Aylanma aktivlar hisobini avtomatlashtirish.

Masala . Qaydnomaga binoan 120 “Kassa” scheti bo‘yicha sentyabr oyida quyidagi operatsiyalar aks ettirilgan, so‘mda:

1. Hisob kitob schetidan ish haqi berish uchun pul olindi	520 000
2. Foydalanilmagan hisobdor summa kasasaga topshirildi	5 800
3. Pul mablag‘i bankka topshirilganda	51 500
4. Xodimlarga ish haqi berilganda	110 000
5. Hisobdor shaxslarga naqd pul berilganda	36 950
6. Hisob kitob schetiga pul mablag‘i qaytarilib topshirilganda	86 530
7. Kassadan moddiy yordam berildi	45 840

Yuqorida sanab o‘tilgan bandlar bo‘yicha korxonada qanday kassa xatoliklariga yo‘l qo‘yilganligini aniqlang. Dalolatnoma rasmiylashtiring.

Masala . Hisobot davri boshida korxonada 200 000 so‘mlik materiallar bor edi. Materiallar asosiy faoliyat maqsadida 100 000 so‘m, transport vositalarning remontiga 5 000 so‘m, boshqaruv ehtiyojlar uchun – 1000 so‘m, yotoqxona remonti uchun – 2000 so‘mlik sarf qilingan.

Korxonaning buxgalteriyasiga berilganda quyidagi provodkalar berilgan.

Dt 200 100 000

Dt 178 5 000

Dt 180 1 000

Kt 060 106 000

Schetlar korrespondensiyasining to‘g‘riligini aniqlang va materiallarning to‘g‘ri hisobdan chiqarilishini tekshiring.

7-amaliy mashg‘ulot. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish.

Masala . SamDU akademik liseyning kassasidagi mavjud pul mablag‘larni tekshirish bosh buxgalterning muovini Sh.Axmedov tomonidan, buxgalter A.Ergashev va kassir X.Abdurasulov ishtirokida 14.02.2004 yil holatida o‘tkazildi.

Kassir X.Abdurasulov tomonidan quyidagilar takdim etildi:

- a) naqd pul 188 so‘m 26 tiyin;
- b) sut uchun talon 6725 dona, xar bir donasining narxi 100 so‘mdan, jami 672500 so‘mlik;
- v) mehnat daftarchasi -178 dona;
- g) «Xumson» sanatoriyasiga yo‘llanma 3 dona, qiymati 20000 so‘mdan jami 60000 so‘mlik, «Chimyon» kurortiga 1 dona yo‘llanma 10000 so‘m, sog‘lashtirish «Turon» sanatoriyasiga 17 dona har birining qiymati 17300 so‘mdan jami 294100 so‘m, Toshkent-Samarqand-Buxoro-Toshkent turistik marshrut bo‘yicha yo‘llanma 20 dona, qiymati 8400 so‘mdan jami 168000 sum. Jami yo‘llanmalar 41 dona qiymati 532100 so‘m miqdorida;
- d) markalar 1750 so‘mlik;
- ye) muhandis D.Tojiyevning 10.02.2004 yilda ish haqi hisobidan olingan 500 so‘mga tilxat (direktor va bosh buxgalterning hyech qanday imzolari mavjud emas).

Kassirning oxirgi hisoboti 13.02.2004 yilda tuzilgan va tekshirish davomida kassa operatsiyalari bo‘yicha quyidagi hujjatlar mavjud:

- a) 14.02.2004 yilda rasmiylashtirilgan 37-sonli kassa kirim orderi (hisobdor shaxs M.Kurbonovning ishlatilmagan summasi kassaga topshirilgan - 300 so‘m);

b) 14.02.2004 yilda rasmiylashtirilgan 69-sonli kassa chikim orderi (xo'jalik extiyoji uchun D.Abdullayevga 325 so'm berilgan), 14.02.200X yilda rasmiylashtirilgan 70-sonli kassa chikim orderi (laborantka M.Ashurovaga moddiy yordam berildi 1700 so'm).

Buxgalteriya va kassa daftariga binoan kassadagi qoldiq 13.02.2004 yil xolatida 36-sonli kassa kirim va 68-sonli kassa chiqim orderlari bilan 2413 so'm 26 tiyinni tashkil qilgan.

Tekshirish o'tkazish sanasidagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha kassada quyidagilar mavjud: a) sut uchun talon - 6726 dona; b) mehnat daftarchasi - 178 dona; v) sanatoriya va turistik yo'llanmalar 40-dona 514800 so'mlik; g) markalar 1750 so'mlik.

Kassa daftari raqamlashtirilgan, tikilgan va muhr bilan muhrlangan, lekin korxona rahbari tomonidan imzolanmagan. Undagi yozuvlar to'g'ri va aniq olib borilgan.

Kassada Paxtabankdan naqd pul olish uchun chek daftarchasi mavjud. Foydalanilmagan cheklarning raqamlari 646398dan 646400 gacha. 646398 raqamli chek korxona rahbari va bosh buxgalter tomonidan imzolangan lekin olinadigan summa miqdori va sanasi ko'rsatilmagan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni bajaring:

1. SamDU akademik liseyning kassasidagi mavjud pul mablag'larning inventarizasiya dalolatnomasini tuzing va kassani tekshirish natijalarini aniqlang.
2. Tekshirish natijalari bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bering.
3. Kassa operatsiyalarini yuritishda qanday xatoliklarga yo'l qo'yilganligini aniqlang.

Masala. TIDU akademik liseyning kassasidagi naqd pul va qiymatliklarning mavjudligini tekshirish bosh buxgalter Sh.Fozilov tomonidan, buxgalter S.Imomov va kassir N.Narzullayev ishtirokida 14.02.2005 yil holatida amalga oshirildi.

Kassir N.Narzullayev quyidagi pul kupyura (bilet)larini taqdim etdi: 200 so'mlik 2 dona, 100 so'mlik 1 dona, 25 so'mlik 1 dona, 10 so'mlik 7 dona, 5 so'mlik 12 dona, 3 so'mlik 21 dona, 1 so'mlik 16 dona va tangalar 7 so'm 20 tiyin; kassir tomonidan kassa kirim va chiqim hujjatlari taqdim qilinmadi.

Buxgalteriya va kassa daftariga binoan kassadagi qoldiq 14.02.2005 yil holatida 19-sonli kassa kirim orderi va 28-kassa chiqim orderlari bilan 721 so'm 10 tiyinni tashkil qilgan.

Bundan tashqari, kassada tovar-transport nakladnoy (yukxati) (170ta pachka, har birida 100 tadan nakladnoy) 3400 so'mga saqlanmoqda. Ushbu qiymatliklar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya ma'lumotlari bilan solishtirilganda ularning ortiqchasi va kamomadi aniqlanmadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni bajaring:

1. Akademik liseyning kassasidagi mavjud pul mablag'larning inventarizasiya dalolatnomasini tuzing va kassani tekshirish natijalarini aniqlang.
2. Tekshirish natijalari bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bering.

